

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
«Tarix» kafedrası

Sharipov Dilmurod Erkin o'g'lining

5120300- tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

«Mustaqil O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning kontseptual
asoslari »
mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Rahbar: A. Shaimqulov.

Guliston - 2017

REJA:**I BOB. AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISH VA IQTISODIYOTNI ISLOH ETISH MASALALARI**

- 1.1. O'zbekistonda aholi turmush darajasining pasayib ketish sabablari.
- 1.2. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya.
- 1.3. Respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar.

II BOB. INSON MANFAATI, HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASH

- 2.1. Huquqiy mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar.
- 2.2. Inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi.
- 2.3. Milliy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati.

III BOB. IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTNI ERKINLASHTIRISH MASALALARI

- 3.1. Mustabid tuzum inqirozining sabablari va ularni bartaraf etish xususiyatlari.
- 3.2. Mustabid mafkuraga qarshi ochiq oshkora kurash.
- 3.3. Jahon hamjamiyati sari qo'yilgan ilk qadamlar.

XULOSA**KIRISH**

Mavzuning dolzarbligi. Dunyodagi xalqlar va millatlarning ozodlik yo'lidagi kurashlar tarixi shundan dalolat beradiki, jamiyat hayotidagi tub burilishlar davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zi buyuk yo'lboshchilarni maydonga chiqaradi. Hindiston tarixida Maxatma Gandi, Amerika Qo'shma Shtatlari tarixida Jorj Vashington, Frantsiya tarixida Sharl de-Goll, Turkiya tarixida Mustafo Kamol Otaturk ana shunday tarixiy missiyani o'z zimmasiga olib, ona xalqining milliy-ozodlik kurashiga boshchilik qilganini yaxshi bilamiz.

Bizning yurtimiz tarixida ham ana shunday ulug' yo'lboshchilar tarixiy vaziyat taqozosi bilan maydonga chiqib, xalqimizni yovuz bosqinchilar zulmidan ozod etgan, uning sha'ni va g'ururi, insoniy huquqlarini qayta tiklagan. Bu haqda gapirganda, Sohibqiron Amir Temur bobomiz o'n to'rtinchi asrda Turkiston zaminini mo'g'ullar zulmidan ozod etib, ana shunday buyuk missiyani ado etganini hamisha g'urur-iftixor bilan esga olamiz. XX asrning 90-yillariga kelib esa Prezidentimiz Islom Karimov ana shunday o'ta og'ir va mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga oldi. Buni "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobidagi har bir nutq va ma'ruza, tarixiy hujjat tasdiqlaydi.

Kitobdagi birinchi material - 1989 yil 24 iyunda, respublika rahbari sifatida ish boshlaganining ikkinchi kuni O'zbekiston Ministrlar Sovetida bo'lib o'tgan Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan kengashda so'zlagan nutqidayoq Islom Karimovdagi haqiqiy yo'lboshchilarga xos fazilatlar yorqin namoyon bo'ladi. Avvalo, yangi rahbar boshqalar kabi yonib turgan o'tkir masalalarga, respublikadagi o'ta tang ahvolga beparvo qarolmaydi. Chunki uning qalbi, yuragi xalq dardi bilan, O'zbekiston dardi bilan yonadi. Uning respublikaning yangi rahbari sifatida aytgan quyidagi dastlabki so'zlari shunchaki so'z emas, balki qat'iy talab bo'lib yangraydi. U faqat va faqat respublika manfaatini, mavjud ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirishni rahbar faoliyatidagi bosh mezon deb biladi va boshqalardan ham shuni talab qiladi: **"Ishga bo'lgan, o'zimizga topshirilgan vazifaga nisbatan munosabatni, dunyoqarashimizni va umuman, mas'uliyatimizni o'zgartira**

olsakkina ishlarimiz yo'lga tushib ketadi. Aks holda, vaziyatni izdan chiqarishga intiladigan kuchlar yo meni chetga surib qo'yadi yoki juda ko'p rahbarlarni o'zgartirishga to'g'ri keladi"¹.

Xolbuki Islom Karimovga qadar respublikamizni boshqargan rahbarlar faoliyatida o'z xalqining emas, balki faqat mustabid Markazning irodasi, uning manfaatlari bosh mezon bo'lib kelgan edi. Shuning uchun ham ular o'zicha mustaqil hech qanday ish qilolmas, boshqalardan ham ishni talab qilishga ularda qat'iyat etishmas edi.

Boshqa bir o'rinda bunday holatning sabablari shunday bayon qilinadi: "Bo'shbayov, siyosiy irodadan mahrum, o'z xalqining or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan kishilarning O'zbekiston kompartiyasi va respublika rahbariyatiga kelib qolishi avvalo shunga yordam berdi. Ularning aksariyati o'zlarining omon qolishlarini o'ylab, huquq muhofazasi organlari, jumladan, Gdlyan va Ivanov guruhi yo'l qo'ygan qonunsizlik va qonun buzilishlarini payqamaslikka obdan urindilar"².

Ana shunday rahbarlarning bo'sh-bayovligidan foydalanib, sobiq Markaz, O'zbekistonning o'zida ko'plab malakali va salohiyatli kadrlar bo'lishiga qaramasdan, SSSRning turli mintaqalaridan yurtimizga ishni bilmaydigan, faqat bu erdagi imkoniyatlardan foydalanib, davru davron surishni o'ylaydigan odamlarni yubora boshladi. Ular xalqimiz o'rtasida "desantchi"lar deb nom oldi. "Boshqa mintaqalardan yuborilgan kadrlarning ba'zilari respublika ehtiyojlari va kulfatlariga hamdard bo'lish u yoqda tursin, balki partiya, sovet va huquqni muhofaza etish organlari va boshqa organlarda o'zlarining rahbar lavozimlariga tayinlanishlarini o'zboshimcha qilish uchun berilgan yorliq, deb bildilar.

Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o'lkaning o'ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilishni ham istamagan bu odamlar respublika hayotini bosib-yanchib qing'ir o'zanga solishga kirishdilar.

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2011 йил, 33-бет.

² Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: "Ўзбекистон" НМИУ. 2011 йил, 175-бет.

Xalqning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini mensimaslik elni juda ranjitdi.

Xalqning urf-odatlari, an'analari, madaniyati obdan oyoq osti qilindi, ona tilining qo'llanish sohasi sun'iy tarzda cheklab qo'yildi. Hatto, shundoq ham milliy an'analardan ancha olisda bo'lgan ayrim san'at turlari ham kimlargadir ma'qul bo'lmay qoldi va ularni yangilashga urindilar. Hatto milliy libos ham qoralandi. Kezi kelganda odamlar milliy an'analar bo'yicha to'y qilish, qarindosh-urug'larni dafn etishga ham cho'chib qolgan edilar"¹.

Mazuning o'rganilganlik darajasi. Albatta, mazkur mavzu yuzasidan joylarda juda ko'plab chiqishlar, davra suhbatlari, maxsus kurslar, seminarlar tashkil etilgan. O'zR FA akademigi S.S. G'ulomov, N.Jo'raev, dots. Q, Abdushkukurov va I. Abdushkurovalarnign bir qator qo'llanmalarida mazkur asarning o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Qolaversa ommaviy axborot vositalarida ham jamiyatimizning faol qatlamlari vakillari ushbu asar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirib kelishmoqda. Shudnay bo'lsada, biz mazkur asar bo'yicha ilmiy mulohazalar va tavsiyalar bilan o'z fikrlarimizni bayon qilishga intildik.

Ishning maqsad va vazfalari. Mazkur tadqiqot ishimiz doirasida doirasida Prezidentimizning mazkur asarlarini tahlil qilar ekanmiz, biz quyidagi masalalarni izohlab berish uchun o'z oldimizga maqsad va vazifalarni belgilab oldik:

- O'tgan asrning ikkinchi yarmi oxirlarida respublikamiz aholisining turmush darjasining pasayib ketish omillarini izohlash;
- Prezidentimiz tomonidan sobiq Ittifoqdagi og'ir iqtisodiy holatdan O'zbekistonning iqtisodiy mutaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiyaning ishlab chiqilishi;
- Respblika qishloq jo'jaligini yaxshilash va qishloq infratuzilmasini qaytadan isloh qilish masalasi;

¹ Ўша манба.177-178- бетлар.

- Fuqarolarning manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar;
- Mustabid mafkuraga qarshi ochiq-oshkora kurash;
- Jahon hamjamiyati sari uning to'laqonli a'zosi sifatida dadil qadamlarni bosishi tarixini yoritish;

Ishning nazariy-metodologik asoslari. Mazkur ishni yoritishda S.G'ulomov, N.Jo'raev, X.Ziyaev, Q.Abdushukurova va O.Ayupov kabi olimlarimiz va ustozlarimizning ilmiy merosi va ko'p yillik tajribalaridan hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, mustaqillik davrida nashr etilgan asarlar, monografiyalar, darslik, o'quv qo'llanmalar, ilmiy to'plam maqolalaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusini yoritishda foydalanilgan tadqiqot usullari. Mazkur mavzuni yoritishda avvalo har bir tarixchi oldida turgan muhim mas'uliyat- holislik va tarixiy-qiyosiy uslub atshkil etadi. Tanlangan mavzuni to'laqonli ochib berish maqsadida asarda ko'tarilgan masalalarga bevosita aloqador risolalar o'rganib chiqilib, ishning saviyasini oshirish uchun ilmiylik va tarixiylik usullariga tayanildi.

Ishning amaliy va nazariy ahamiyati. Mazkur tadqiqotimiz shu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarida, qolaversa Prezidentimiz asarini o'qitishda foydalanish ijobiy natijalar beradi degan umiddamiz.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Mazkur BMI- kirish, III bob, 9 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qismidan iborat.

I-BOB. AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISH VA IQTISODIYOTNI ISLOH ETISH MASALALARI.

1.1. O'zbekistonda aholi turmush darajasining pasayib ketish sabablari

XX asrda 70 yildan ko'proq vaqt hukmron bo'lgan, dunyo xaritasida "Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi" degan nom bilan katta hududni egallagan, soxta kommunistik mafkuraga, ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan yirik mamlakatdagi noto'g'ri, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 80-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O'zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og'irlashtirib, uni ko'plab muammolar iskanjasiga solib qo'ydi.

Bu muammolarning barchasi 80-yillarning oxiri – 90-yillarning boshlarida ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib keldi.

Shuningdek, O'zbekistonda o'ta keskin va jiddiy muammolar yuzaga keldi:

1) respublikada demografik vaziyatning murakkabligi. Statistik ma'lumotlar tahlili aholi ro'yxatga olingan davr oralig'ida, ya'ni 1979-1989 yillar davomida respublikada jami aholi soni 15379.4 ming kishidan 19810.0 ming kishiga yoki 28.8 foizga ko'payganini ko'rsatadi. Bu davrda aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2.8 foizni tashkil qilgan. 1991 yilga kelib mamlakatda aholi soni 20.7 million kishidan ortib, 1990 yilga nisbatan 386.0 ming kishiga o'sgan.

Bu esa O'zbekistonda aholining o'sish sur'atlari Ittifoq sur'atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, aholining bunday o'sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining yomonlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keladi.

2) respublika iqtisodiyotining bir yoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda, sanoatda ham asosan xom ashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo, xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi. Qishloq xo'jaligi xom ashyosining talaygina hajmi respublikadan olib ketiladigan bir vaqtda aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 milliard so'mlikka yaqin tayyor mahsulot chetdan olib kelingan. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi elektronika, asbobsozlik, radiotexnika, murakkab ro'zg'or texnikasi ishlab chiqarish kabi va boshqa ko'pgina ilg'or tarmoqlar qoniqarli rivojlantirilmadi. Aksincha respublikada suv ko'p sarflanadigan va zararli ishlab chiqarishlar asossiz ravishda rivojlantirildi;

3) ishlab chiqaruvchi kuchlar va avvalo, sanoat ob'ektlari, asosan, stixiyali ravishda, aniqrog'i, har xil o'zboshimchalik, buyruqbozlik bilan qabul qilingan qarorlar asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarning tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylashtirildi. Bu esa respublika iqtisodiyoti hamda aholi punktlarining ekologiyasiga g'oyat katta ziyon etkazib, aholi hayot ta'minotiga, odamlarning yashashi va uyg'un kamol topishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga salbiy ta'sir o'tkazdi;

4) respublikadagi ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat ob'ektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi. O'zbekiston sobiq Ittifoq tarkibida uzoq yillar davomida hukm surgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ta'sirida faqat xom-ashyo etkazib berishga asoslangan, qoloq va mo'rt iqtisodiyotga ega bo'lib, bu holat respublika aholisi daromadlari va turmush darajasiga ancha keskin ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha 2.5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2.5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi, o'z navbatida, aholining turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatib, yashash sharoitlarining og'irlashuviga sabab bo'ldi. O'sha davrda kun kechirish uchun oyiga o'rta hisobda kamida 85 so'm zarur bo'lgani holda, 75 so'mdan kamroq yalpi daromat oladigan aholining ulushi Ittifoq bo'yicha 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, O'zbekistonda 45 foizga etgan, ya'ni 8 million 800 ming kishini tashkil etgan. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmagan, ya'ni ishsiz bo'lgan.

Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolda bo'lib, maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan. Bu esa o'sha davrda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmaganini ko'rsatadi.

Bunday og'ir ahvolning vujudga kelish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga zo'r berilib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlarning tobora kuchayib borishi;
- respublikaga asosan xom ashyo bazasi, sobiq markazdagi sanoat vazirliklari va idoralarning mo'may xom ashyo manbai sifatida qarab kelinishi;
- o'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan etarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmagani, ba'zan esa bu xususiyatlarning pisand ham qilinmagani;
- iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonning mavqei va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmagani.

Sobiq tuzum davrida mavjud murakkab muammolarni hal etish uchun sobiq Ittifoq rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan, ammo bir-biri bilan o'zaro

bog'lanmagan turli dastur va tadbirlar ham chala-yarim amalga oshirilar edi. Respublikaning ayrim mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun markaz tomonidan amalga biron-bir ish qilinmadi.

Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi. Asosan, byudjetdan moliyalashtirilar va qat'iy markazlashgan edi. U davrda mehnat sharoitlari, mehnat muhofazasi, ijtimoiy ta'minot ko'proq deklarativ xarakter kasb etgan, chunki mablag' va zaxiralar asosan zararli, xavfli mehnat sharoitlarini kompensatsiya qilishga (qo'shimcha mehnat haqi, imtiyozlar, imtiyozli pensiyalar va h.k.) yo'naltirilgan.

Bu davrdagi ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini pasaytiruvchi omillarga quyidagilar kirgan:

- to'lov va imtiyozlarning aholining ko'p toifasiga berilishi, moddiy ta'minlanish darajasining deyarli e'tiborga olinmagani;

- moddiy yordam olivchilarning faravonlikka o'z kuchlari bilan erishish imkoniyatlarini to'la inobatga olmaslik. Ma'lumki, buning oqibatida aholi o'rtasida ijtimoiy boqimandlik kayfiyati, beparvolik, tashabbussizlik, jamiyatning marginallashuvi kelib chiqadi;

- hududiy va munitsipal hokimiyat organlari o'rtasida ijtimoiy yordam ko'rsatish vakolatlari va javobgarligining aniq taqsimlanmagani. Bu esa, ijtimoiy to'lov va imtiyozlarni taqdim etish va moliyalashtirishda javobgarlikdan bosh tortishga olib kelgan.

Barcha aholiga mo'ljallangan ijtimoiy siyosat yordamga ehtiyojning ko'proq va kamroq darajasi kabi juda muhim omilga nisbatan sezgirlikni qo'ldan boy berdi. Shunday bo'lib chiqdiki, kam ta'minlangan fuqarolar ham, to'la ta'minlangan fuqarolar ham bir xilda madad olardi. Buning ustiga, dotatsiya joriy etilgan asosiy tovar va xizmat turlaridan aynan shunday yordamga kamroq muhtoj bo'lgan kishilar ko'proq foydalanib qolishdi. Haqiqatan ham, muhtoj kishilar uchun kam

samara bergan ijtimoiy muhofaza tizimi behuda sarf-xarajatlarga, mablag'larning behuda sovrilishiga sabab bo'ldi.

Mustaqillikka erishish ostonasida odamlarning ta'minoti, daromadi, ularning yashashi uchun zarur bo'lgan kundalik mahsulotlarning eng kam miqdori, ortiqcha ishchi kuchining bandligi kabi masalalardagi mavjud ahvol og'ir bo'lgan. Buning asosiy sababi - bu yillarda har bir viloyat bo'yicha aniq dasturlar, ichki rezervlar hisobidan ishni to'g'ri tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruktsiya qilish, qancha miqdorda, kimga va qachon qo'shimcha xom ashyo ajratish evaziga ahvolni yaxshilash imkoniyatlari to'g'risida amaliy tadbirlar bo'lmagan.

Bu davrda yildan-yilga tobora keskinlashib kelayotgan asosiy ijtimoiy muammo- bu aholi o'rtasida ishsizlar sonining jadal ravishda o'sib borishi edi. Sobiq Ittifoq rahbarlari respublikadagi bu muammoga e'tibor qaratmas, ayniqsa, qishloq joylardagi ishsizlik odamlarning tinka-madorini quritib borardi. Qishloqlarda yangi ish o'rinlarini yaratish imkoni deyarli yo'q, sababi - respublikaning barcha viloyatlardagi, xususan, Farg'ona viloyatidagi barcha er maydonlari ishdan chiqqan, erning joni so'rib olingan edi. Natijada mehnatni tashkil etishning yangi usullari bo'lgan oilaviy pudrat va boshqa xo'jalik yuritish shakllarini, erni dehqon ixtiyoriga beradigan ko'plab tadbirlar joriy etilgan taqdirda ham qishloqda yashayotgan odamlarga to'g'ri keladigan qo'shimcha daromad miqdorini o'zgartirish qiyin bo'lgan. Bunga misol tariqasida Qashqadaryo viloyatini olish mumkin. Aholini Qarshi cho'llariga tashkiliy ravishda ko'chirishning butun davri mobaynida u erga 600 ta oila ko'chib borgan, xolos. 1989 yilga qadar ulardan 40 ta oila yashab qolgan. Buning asosiy sababi - aholining ishlashi uchun munosib ish o'rinlari yaratilmaganida.

“O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida ana shunday muammolar bilan birga, ularning echimi ham ko'rsatiladi. Ish o'rinlarini yaratish uchun ishlab chiqarish tarkibini shunday qayta qurish zarurki, odamlar o'zlari yashayotgan joydan uzoqqa ketmasdan, samarali mehnati hisobidan kerakli daromadga ega bo'lsin. Shu o'rinda dunyoda aholisi eng ko'p bo'lgan Xitoyni

misol tariqasida oladigan bo'lsak, u erda sanoat mahsulotlarining 40 foizi qishloq joylarda ishlab chiqarilmoqda, deb ta'kidlanadi kitobda. Bu mamlakatda yirik korxonalar qurishmaydi, odamlar esa bir vaqtning o'zida shaxsiy xo'jalik bilan shug'ullanib, yashash joyidan uzoq bo'lmagan erda qo'shimcha davromad manbaiga ham ega bo'ladi, deb qayd etadi .

Bu fikrlarning davomi : “Aytish kerakki, Xitoyda aholining soni biznikiga qaraganda bir necha barobar ko'p. Lekin Xitoy qandaydir yo'llarni topib, bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etmoqda. O'zingiz e'tibor bering, bugungi kunda Xitoy qanday sur'atlar bilan rivojlanmoqda, xalqining hayot darajasi o'sib bormoqda”¹.

Ma'lumki bu so'zlar aytilgan paytda Farg'ona vodiysida ishchi o'rinlarini yaratish masalasi jiddiy muammo bo'lgan. Vodiya joylashgan ayrim tarmoqlarda, ayniqsa, engil sanoatda bo'sh ish o'rinlari juda ko'p bo'lishiga qaramasdan, odamlarni ishga joylashtirish qiyin bo'lgan. Bunga ushbu tarmoqlar uchun bevosita javobgar bo'lgan, lekin bu masalalarni kimdir chetdan kelib hal qilib beradi, degan xomxayol bilan yurgan odamlarning mas'uliyatsizligi sabab bo'lgan.

Farg'ona viloyati aholisining hayot darajasini va ishga yaroqli aholining bandligini oshirish bo'yicha dasturni ishlab chiqish zarur edi. Kitobda e'tibor qaratilgan yana bir muhim muammo shuki, mustaqillikka erishish ostonasida mahalliy organlar rahbarlari jon boshiga qancha daromad to'g'ri kelishi va umuman, odamlarning qanday hayot kechirayotgani, bundan keyin shunday past daromadlar bilan yashash mumkin emasligini bilmagan. O'sha yillari pensioner, kolxozchi oyiga bor-yo'g'i 42 so'm olgan.

Shu bilan birga, 1990 yili respublikada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari 571, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul daromadlari esa 551 AQSh dollarini tashkil etgan. Aytib o'tish joizki, bu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston sobiq Ittifoqdagi mamlakatlar orasida eng oxirgi o'rinlarda turgan.

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011 йил, 36-бет.

Bundan tashqari, mustaqillikka erishish arafasida aholining daromadlari kam bo'lgani tufayli uning asosiy qismi iste'mol harajatlariga sarflangan.

Aytish joizki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda odamlar ikki toifaga ajratilgan. Ishga joylashishni istayotgan odamlarga qandaydir maxfiy ko'rsatmalar borligi uchun arzimagan vajlarni ro'kach qilib, ortiga qaytarib yuborishgan. Qishloqdan kelgan odamlarni shaharlarda ishga olishmagan, ammo bu respublikamizning tashqarisidan kelganlar esa ishga qabul qilingan.

O'zbekiston byudjeti katta kamomad bilan yakunlanayotgan va bunday kamomad tobora o'sib borayotgan bir sharoitda sobiq Ittifoq rahbarlari respublikani 1991 yildan boshlab xo'jalik hisobiga o'tishga majbur qila boshlaydi. Xolbuki o'sha davrda respublika byudjetining ham, mahalliy byudjetlarning ham daromad qismi bazasi o'ta zaif bo'lib, narx-navo oshib borayotgan bir vaziyatda xarajatlarni qoplash imkonini bermas edi.

Mamlakatimiz rahbari o'sha davrda vujudga kelgan ahvoldan chiqish yo'li sifatida quyidagilarni belgilab berdi:

- ishlarning ahvoliga xolis baho berish, respublikadagi vaziyatni sog'lomlashtirishning konkret va aniq-puxta dasturini ishlab chiqish;
- hayotning barcha sohalarida qat'iy tartib va intizom o'rnatish, rahbar kadrlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yish, ularga nisbatan talabchanlikni oshirish.

Respublikamizdagi vaziyatni chinakamiga o'nglash, yurtdoshlarimizning hayotga qarashini, bugungi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlash uchun avvalo, ularning iqtisodiy, moddiy ahvolini yaxshilash zaruratini chuqur anglagan Prezidentimiz o'sha davrda aholi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan juda katta bir masalani – odamlarga tomorqa er berish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Ushbu masalaning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini quyidagi holatlar orqali ham tasavvur qilish mumkin edi:

- respublika qishloqlarida eri yo'q oilalar soni – 240 ming nafar;
- uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun kengaytirishga muhtoj hovlilar soni – 1,8 milliondan ko'proq;

- faqat Toshkent shahrida er uchastkasi olish uchun navbatda turgan oilalar soni – 92 ming nafardan iborat edi.

Buning ustiga, shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi posyolkalarda er yo'qligi sababli mehnatkashlarning yakka tartibda uy-joy qurishga, jamoa ravishda bog'dorchilik qilish va polizchilik bilan shug'ullanishga imkoni yo'q edi.

Zamonaviy shaharda, ayniqsa, Toshkent kabi azim shaharda yashash shunchaki istiqomat qilishni bildirmaydi. Har bir oila uchun alohida kvartira yoki shaxsiy uy bo'lishi zarur. Oktyabr, Sobir Rahimov, Kirov rayonlarida 600 ming kishi yashab turgan xonadonlar urushdan avval qurilgan bo'lib, shu qadar puturdan ketib qolgan ediki, ularning ta'mirlashning ham iloji bo'lmagan. Bu xonadonlarda markaziy isitish tizimi, vodoprovod, gaz va kanalizatsiya yo'q, ikki-uch xonada bir necha oila yashab turgan, kishi boshiga 2-3 kvadrat metr turar joy to'g'ri kelgan. Agar Toshkentda o'rta hisobda kishi boshiga 14,2 kvadrat metr turar joy to'g'ri kelsa, eski shahar qismida bu raqam ikki barobar kam bo'lgan. Qariyb 7 ming oila shunday yashaganki, har bir oila a'zosiga salkam 5 kvadrat metrdan kamroq maydon to'g'ri kelgan. Bu – eng oddiy hayot ta'minoti shartlariga ham yaqinlashmaydi.

Katta shaharlarning normal turmushini aniq-puxta oziq-ovqat ta'minotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Do'konlar va bozorlardagi ahvol mehnatkashlarning, butun Toshkent ahlining haqli ravishda noroziligini to'g'dirgan. Agar aholini go'sht-sut mahsulotlari bilan ta'minlashdagi uzilishlarni bir amallab tushuntirib berish mumkin bo'lsa, shahrimiz bozorlarida meva va sabzavotlarning narxi Sibir hamda Uzoq Sharq darajasida ekanini mutlaqo oqlab bo'lmas edi.

Masalani bir qadar engillashtirish uchun respublika matlubot kooperatsiyasi Toshkent shahrining barcha rayonlarida meva-sabzavot bozorlarini uyushtirgan, bunday bozorlarda 30 ming tonnadan ko'proq qishloq-xo'jaligi mahsuloti sotilgan. Bundan tashqari, "O'zbekbirlashuv", shahardagi tegishli idoralarning kuch-g'ayrati bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan narxlarda sotadigan 53 ta do'kon qisqa muddatda qurib, foydalanishga topshirilgan. Meva va sabzavotni

saqlash va qayta ishlash bazasini mustahkamlash uchun katta tadbirlar ko'rilgan. Xitoy Xalq Respublikasidan qo'shma tarzda kartoshka sotib olingan.

Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi aholiga bog'dorchilik-uzumchilik uchun ajratib berilgan uchastkalar ko'payib borgan. Bu, o'z navbatida, oziq-ovqat ta'minotini ancha yaxshilashga va kishilarning bo'sh vaqtini foydali ishlarga sarflashga, odamlarning salomatligini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Odamlar biron-bir talab ehtiyojni – hoh go'sht yoki qand-shakar, spirtli ichimliklar yoki sovun bo'lsin, shu narsalar bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklarni ma'lum bir vaqtgacha tushunishi, bunga qanoat qilib turishi mumkin. Ammo ular o'zlarining xavfsizligidan mahrum bo'lganini tushuna olmaydi, bunga toqat qila olmaydi. Oilaning, farzandlarning, yaqin kishilarning hayoti va sog'ligi, uy-joyning dahlsizligi saqlanishiga, necha o'n yillar mobaynidagi mehnat tufayli orttirilgan bisotining bus-butun qolishiga hech narsa kafolat bermasa, ular qandaydir bezori, ekstremist guruhlarning tazyiqi ostida vayron bo'lsa, ma'murlar inson shaxsi va hayotining dahlsizligini ta'minlashmasa, buni bironta ham sofdil, vijdonli kishi qabul qila olmaydi.

Mustaqillikka erishish ostonasida respublikamizda odamlarning hayot ta'minoti muammolari yig'ilib qolgan va ular nihoyatda o'tkir tus olgan edi. Fuqaro hokimiyatdan kutayotgan eng asosiy narsa – har bir odamning ishga, uy-joyga ega bo'lishi, oziq-ovqat, kiyim-kechak, normal turmush va dam olish, farzand tarbiyalash uchun mablag' ishlab topa olishi bilan bog'liq edi. Bu davrda do'konlarda hayotiy zarur mahsulotlar turmagan, halol mehnat bilan ishlab topilgan pulga oddiy narsalarni haqoratli tarzda, navbatlarda uzoq turib, chayqov narxlar sotib olishga odamlar majbur bo'lgan.

***1.2. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan
strategiya***

Respublika iqtisodiyoti bir yoqlama tarzda, faqat xom ashyo etishtiradigan holga tushib, kompleks rivojlanish yo'liga, aholi ehtiyojlarini qondirishga o'tkazilmagan ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishidagi chuqur nomutanosibliklarda namoyon bo'ladi.

Sovet davrining keyingi o'n yilliklari mobaynida iqtisodiyotni rivojlantirishda xom ashyo va chala tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan va chetga yuboriladigan, mehnatni nisbatan kamroq talab qiladigan xom ashyo tarmoqlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi ushbu nomutanosibliklarni yanada kuchaytirdi.

Ishlab chiqarishning umumiy hajmida engil sanoatning ulushi keyingi 50 yil ichida 54 foizdan 37 foizga, oziq-ovqat sanoatining ulushi 30 foizdan 14 foizga tushib qolgan, mashinasozlikning ulushi atigi 7 foizga o'sib, 16 foizni tashkil etgan. Qisqargan tarmoqlar o'rniga yoqilg'i sanoati, kimyo va neft kimyosi, qora va rangli metallurgiya, ya'ni xom ashyo tarmoqlarining ulushi ancha ko'paydi. Bu esa mehnatga layoqatli aholini ishlab chiqarishga jalb etish jarayonlarini yanada pasaytirib yuborgan. Chunki 1 million so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga ish bilan ta'minlash darajasi turlicha bo'lib, ayrim sohalarda mehnattalablik ko'lamini hatto 300-400 kishiga qadar etishi mumkinligi hisobga olinmagan.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini tarkib toptirish va rivojlantirishda qator nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Jumladan:

- respublika mashinasozlik kompleksi faoliyati paxtachilik, paxtachilik uchun mashinalar ishlab chiqarish bilan cheklanib, murakkab uy-ro'zg'or texnikasi, yo'l qurish mashinalari, plastmassa buyumlari, oziq-ovqat sanoati jihozlari, savdo-sotiq va maishiy xizmat sohasi uchun kerakli asbob-uskunalar deyarli ishlab chiqarilmaydi;

- kimyo sohasining rivojlanishida yirik korxonalariga afzallik berilishi respublikadagi ekologik vaziyatni juda yomonlashtirib yubordi;

- yirik kimyo korxonalari nitron, atsetat, kaprolaktam singari dastlabki qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashib, ularning mahsulotlari ham asosan respublikadan tashqariga chiqarishga mo'ljallandi.

1990 yili O'zbekistonda sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlangani respublikadan tashqaridagi ko'plab mutaxassis va siyosatchilarda qiziqish yo'qotdi. Respublikamiz rahbari o'ziga xos murakkab

sharoitlarda erishilayotgan muvaffaqiyatlarning sababini o'ylab qo'yilgan rejalarni qat'iyat va izchillik bilan ado etishda, deb ko'rsatib berdi. Respublikadagi rahbar kadrlarning amaliy harakat qilishi, ayniqsa, "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay" degan qoidaga amal qilinishi hokimiyatda bo'shliq paydo bo'lishining oldini oldi.

Prezidentimiz "Komsomolskaya pravda" gazetasi muxbiri savollariga bergan javobida birinchi marotaba sovetlarning yuksak minbaridan O'zbekistonda 9 milliondan ziyod kishi bechorahol kun ko'rayotganini, aholining 47 foizga yaqinini alohida shart-sharoitga muhtoj bolalar tashkil etishini, respublikada o'lim ko'rsatgichi mamlakat bo'yicha juda yuqori darajada bo'lib qolayotgani to'g'risidagi haqiqatni aytgani, bu esa odamlar o'rtasida yangi rahbarga nisbatan ishonch tuyg'usini mustahkamlaganini ta'kidladi.

Respublikamiz rahbari o'z vazifasini boshlagan davrdan har bir jamoa va davlat xo'jaligi etishtiriladigan paxta hajmini, avvalo, o'zining iqtisodiy manfaatlaridan, o'z daromadlaridan kelib chiqib, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini hisobga olib, o'zi belgilashini, shunga ko'ra 1990 yilda 1988 yildagi 1710 ming tonna o'rniga 1500 ming tonna paxta tolasi, ya'ni 210 ming tonna kam tola xarid qilish rejalashtirilganini qat'iy ko'rsatib berdi. Shuningdek, hal qilinishi respublikamizning deyarli butun aholisi manfaatlari va farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi muammo - paxta narxini qayta ko'rib chiqish maslasini o'z mas'uliyatiga oldi. Holbuki, o'sha davrda bu muammoni hal qilish uchun kamida 1,5 milliard so'm talab qilinar edi.

Biroq, o'sha davrda sobiq Ittifoq rahbariyati Prezidentimizning o'z xalqi manfaatini o'ylab qilayotgan bu kabi haqli talablarga quloq solishni istamas edi. Bu borada Yurtboshimizning "Men uzil-kesil qilib: paxta etishtirishni 700 ming tonnaga qisqartiramiz dedim. Bu 250300 ming gektar er, degan gap. Ittifoq mahkamalarida, Davlat plan komitetida masalani siz nimani istasangiz. Yozib qo'yavering, men baribir bajarmayman, degan qabilda o'rta qo'ydim. Biz so'nggi nuqtaga o'tganimizni tushunishganidan keyin bu masalalarni echishga

yordam berisha boshlashdi. 165 ming gektar maydon odamlarga bo'lib berildi, dehqonlarning tomorqalari qariyb ikki barobar ko'paydi. Odamlarda qiziqish paydo bo'ldi", degan so'zlari bu boradagi har bir jarayonning o'ta ziddiyatli, qizg'in va tortishuvlar asosida o'tganidan darak beradi.

Respublika iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishining yanada takomillashtirilishi tashqi iqtisodiy imkoniyatlar samaradorligini oshirishni ham taqozo etib, bu boradagi quyidagi muammo va vazifalarni hal etish muhim o'rin tutar edi:

-tashqi iqtisodiy imkoniyatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiyotdagi chuqur strukturali o'zgarishlarning sustligiga barham berish. Faqat 160 ta korxonalar o'z mahsulotini xorijga chiqarib, asosan, xom ashyo va materiallar eksport qilmoqda. Chet el firmalari ishtirokida atigi 14 ta qo'shma korxonalar tashkil etilgan;

- ko'plab korxonalarining chet el bozoriga chiqish sohasida berilgan imkoniyatdan to'g'ri foydalanmayotgani;

- tashqi iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtirishni kuchaytirish maqsadida tuzilgan respublika Tashqi iqtisodiy banki (Vneshekonombank), tashkil etilayotgan O'zbekiston SSR Tashqi savdo va chet ellar bilan aloqa davlat komiteti barcha mehnatkashlar mehnati evaziga qo'lga kiritilgan valyutani respublikaning hayotiy muhim manfaatlariga, uning butun aholisiga xizmat qilishini ta'minlashi;

- xalqaro munosabatlar sohasidagi konstitutsion huquqlarning to'la-to'kis amalga oshirilishini respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda hal qiluvchi mezonga aylantirish.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, bu boradagi strategiyaga quyidagi yondashuvlar asos qilib olinishini belgilab berdi:

- mintaqamiz taraqqiyotining tarixiy asoslari, oqilona mantiq e'tiborga olinmay, ma'muriy- buyruqbozlik usullari tazyiqi ostida shakllangan qarashlarning hammasiga barham berilishi kerak;

- mintaqamiz taraqqiyotining istiqbollari avvalo respublika aholisining manfaati nuqtai nazaridan qaramoq kerak.

Respublikani iqtisodiy mustaqillik yo'liga olib chiqish, uni inqiroz girdobidan chiqarish vazifalarini hal etishda O'zbekiston resurslari va imkoniyatlariga baho berishga mutlaqo yangicha yondashish zarurligi, mavjud imkoniyatlarni Ittifoq va jahon bozori uchun qanchalik jozibali ekani nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerakligi ta'kidlandi:

- birinchidan, respublikaning ajoyib tabiiy iqlim sharoitlaridan samarali foydalanish, etishtirilishi lozim bo'lgan eng foydali va daromadli ekinlarni aniqlab olish;

- ikkinchidan, mavjud 500 ming gektar juda sho'rxok va o'rtacha sho'rxok erlarning irrigatsion va meliorativ holatini yaxshilash masalalariga e'tiborni kuchaytirish;

- uchinchidan, O'zbekistonning gaz kondensanti, ko'mirga bo'lgan talab-ehiyojini to'la-to'kis ta'minlash, yaqin vaqt ichida neft qazib olishni 3-4 barobar ko'paytirish, Qizilqumda fosforitlarning juda katta konini o'zlashtirish, rangli va qimmatbaho metallarning juda katta resurslaridan respublika manfaatlari yo'lida samarali foydalanish;

- to'rtinchidan, respublikaning eng katta boyligi bo'lgan uning mehnatsevar xalqi uchun keng imkoniyatlar yaratish singari bu boradagi muhim vazifalarga alohida e'tibor qaratilib, ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berildi.

Shuningdek, mamlakatimiz rahbari xalqimiz hayotini munosib darajaga ko'tarish uchun mavjud resurs va boyliklardan foydalanish yo'llariga alohida e'tibor qaratdi.

O'sha davrda O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan kiyim-kechaklarning 25 foizi, trikotaj buyumlar va ip gazlamaning 30 foizdan ko'prog'i, poyabzalning deyarli 50 foizi chetdan keltirilardi. Prezidentimiz o'z faoliyati boshidanoq respublikamizning xalq iste'moli mollari jihatdan bunday qaramligini tugatish uchun sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratdi. Jumladan:

- engil va mahalliy sanoatni rivojlantirishning tashib kelish va chetga chiqarish balanslariga asoslangan konkret dasturlarini ishlab chiqish;

- zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallash, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va intellektual mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlarini jadal rivojlantirishga keskin burilish;

- mashinasozlik, radioelektronika, asbobsozlik korxonalarini tubdan yangilash va yangilarini qurish hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash;

- fan va texnika taraqqiyotining oldingi marrasiga chiqish uchun mavjud barcha resurs va shart-sharoitlar, ilmiy texnikaviy va loyiha-konstruktorlik bazasi imkoniyatlaridan foydalanish;

- shu asosda boshqa mintaqalar va chet ellar bilan teng huquqli sheriklar sifatida aloqalarni yo'lga qo'yish.

Prezidentimiz iqtisodiy suverenitetga erishishning amaliy masalalariga batafsil to'xtaldi:

- iqtisodiyotimizning hayotiy qobiliyatini ta'minlab turgan Ittifoq qaramog'idagi barcha korxonalar va tashkilotlarni respublika tasarrufiga o'tkazish;

- Ittifoq qaramog'ida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lgan tarmoq va korxonalar, jumladan, yopiq turdagi korxonalar to'g'risidagi masalani ana shu korxonalarining respublikamiz bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tubdan o'zgartirish asosida alohida hal etish. Zaminimizdan qazib olinadigan oltin, mineral xom ashyo, foydalaniladigan er, suv, ishchi kuchi uchun respublikaga muayyan miqdorda pul to'lanadigan, shuningdek, mahsulotning ma'lum qismi respublika byudjetiga o'tkaziladigan shartnoma munosabatlarini o'rnatish maqsadga muvofiq;

- konvertatsiya qilinadigan valyutada etkazib beriladigan oltinning uchdan bir qismi qiymatini O'zbekistonga qaytarish;

- xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan deyarli barcha korxonalar, jumladan, "O'zmaishiykimyo" tashkilotiga qarashli korxonalar, Toshkent zargarlik buyumlari zavodi, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo korxonalarining ancha

qismi, gaz kompleksining yirik bo'linmalari respublika qaramog'iga o'tkazilishi kerak;

- kichik korxonalar va tashkilotlarni, ayniqsa, aholiga xizmat ko'rsatish, odamlarning kundalik ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq shunday korxonalar va tashkilotlarni mehnat jamoalariga va xususiy kishilarga topshirish.

O'zbekistonning suveren davlatchilik sari ana shunday bosqichma- bosqich intilib borishiga qaramay, Ittifoq idoralarining son- sanoqsiz nizomlari va yo'l- yo'riqlari respublikaning biron-bir iqtisodiy masalani mustaqil hal etish imkonini bermas edi. Bunday umrini o'tab bo'lgan huquqiy qoidalar va nizomlarga ko'r- ko'rona itoat qilinishi esa yangidan- yangi ijtimoiy mojarolarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Shunga ko'ra, Prezident Farmoniga binoan, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida xom ashyo va engil sanoat mahsulotlari ta'minoti hamda ularni sotish bosh boshqarmasi hamda Tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa davlat komiteti tashkil etildi. Chunki, oltita Ittifoq va respublika tashkiloti mavjud bo'lishiga qaramay, engil sanoat xom ashyosini taqsimlash va realizatsiya qilishni muvofiqlashtirishga erishilmadi, qimmatbaho xom ashyolarning harakati nazorat qilinmadi. Buning oqibatida paxta tolasi va qorako'ning 90 foizi, tabiiy junning 71 foizi, sintetik tolaning 93 foizi, pilla va charmning anchagina qismi arzimay narxlarda respublikadan olib ketilaverdi. Ichki bozorda ham, jahon bozorida ham ko'plab talab qilinayotgan mana shu g'oyat qimmatli xom ashyoning ko'pchilik qismi Sharqiy Evropa mamlakatlariga eksport qilinmoqda, ular esa bu mahsulotlarni jahon narxlarida sotmoqda edi. Holbuki, o'zimizdagi aksariyat korxonalar xom ashyo etishmas. Bizdan olib ketilgan resurslardan tayyorlangan mollarni esa respublika boshqa mintaqalardan va chet ellardan uch hissa ortiq narx bilan sotib olishga majbur edi. Bularning barchasi iqtisodiy sohadagi chidab bo'lmas adolatsizlik edi.

1.3. Respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar

30-yillardan boshlab o'zbekiston oldiga qo'yilgan sobiq Ittifoqning paxta sohasidagi mustaqilligini ta'minlash vazifasi katta mashaqqat bilan hal qilingach, natijada vujudga kelgan paxta yakkahokimligi qishloq xo'jaligining tub maqsadlariga xilof ravishda yuqoridan zo'rlab o'tkazib kelindi. Buning oqibatida esa:

- respublikada go'sht va sut etishtirish imkoniyatlari kamayib ketdi;
- respublikaning ko'pgina hayotiy muhim manfaatlariga ziyon etdi;
- ilmiy asoslangan almashlab ekish jarayoni buzildi;
- erning tinka-madori qurib, hosildorlik mutassil ravishda pasayib bordi;
- suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamaydi.

Ushbu holatlarning qishloq xo'jaligiga halokatli ta'siri natijasida respublikada oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish cheklab qo'yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlash muammolari keskinlashdi.

Shunday qilib ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishdagi xatolar va yaroqsiz yondashuvlar, xalq xo'jaligining tuzilishida, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini rivojlantirishda yo'l qo'yilgan katta-katta kamchilik va nomutanosibliklar og'ir oqibatlarga olib keldi.

Respublikamiz aholisi salmoqli qismining qishloq joylarda istiqomat qilishi, iqtisodiyot tarkibida qishloq xo'jaligining etakchi o'rin tutishi mazkur tarmoqni

rivojlantirish, undagi uzoq yillar davomida vujudga kelgan muammolarni hal qilish zaruratini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, mamlakatimiz rahbari o'sha dolg'ali va notinch davrda respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi yangi tashabbuslarni ilgari surib, amalga oshirilishi zarur bo'lgan bir qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan:

- respublika agrar sektori iqtisodiyotning shunday bo'g'iniki, O'zbekistondagi muammolarning aksariyatini ana shu bo'g'inga tayanibgina hal etish mumkinligi;

- respublikaga Markaz tomonidan zo'rlab qabul qildirilgan paxta yakkahokimligiga qarshi izchillik bilan kurash olib borish zarurligi;

- paxta xom ashyosini respublika ichida qayta ishlashni yo'lga qo'yish. Bunga erishilgan holda dehqonlar tomonidan gektar boshiga olinayotgan 2200 so'm daromad paxtani to'liq qayta ishlash natijasida 18-20 ming so'mga etishi, ya'ni o'n barobar ko'p daromad hamda qariyb yuz xilga yaqin mahsulot olinishi mumkin;

- paxta xom ashyosidan samarali foydalanish, ayni paytda bozorga faol ta'sir ko'rsatish yo'llarini o'rganish lozim. Hatto, g'o'zapoya, shrot, lintdan to'g'ri foydalanib, amaldagi daromad hajmini 3-5 barobar ko'paytirish mumkin;

- paxtachilikda almashlab ekishni joriy etishga asoslangan ilmiy yo'ldan borish. 1991 yilda paxta tolasi uchun davlat buyurtmasi darajasini etishtirilgan mahsulotning yarmidan oshirmaslik hisobidan rejani 100 ming tonna kamaytirish vazifasining qo'yilishi paxtadan bo'shagan erlardan odamlarning dolzarb ehtiyojlarini qondirish, shu jumladan, chorvachilik mahsuloti etishtirishni kengaytirish uchun foydalanish imkonini yaratdi;

- aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirish. 1995 yilgacha meva, sabzavot mahsulotlari etishtirishni 2 barobardan ziyodroq ko'paytirishni ko'zda tutuvchi asosli dastur ishlab chiqildi;

- qayta ishlash sanoati korxonalari qurilishini jadallashtirish. 1995 yilgacha O'zbekistonda 300 ta mo''jaz tsex qurish ko'zda tutildi. Bu esa oziq-ovqat mollari resurslarini ancha ko'paytiradi hamda aholini bu mollar bilan ta'minlani yaxshilaydi;

- qishloqni ijtimoiy hayotini qayta qurish, qishloqni qashshoqlikdan qutqarish, qishloq xonadonini badavlat qilish yo'lida ish olib borish.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda er va suv masalasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, bunda quyidagi jihatlarni diqqat markazida tutish hamda har tomonlama inobatga olish muhimdir:

- respublikada sug'oriladigan erlar qishloq xo'jaligi mahsulotining 95 foizini berishni hisobga olib, er va suv muammosini birgalikda hal etish;

- yangi erlarni o'zlashtirish amalda to'xtatilganidan keyin vujudga kelgan jiddiy vaziyatni hisobga olish. O'sha pallada qishloq xo'jaligida band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan 1,2 gektardan 0,8 gektargacha, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 0,4, Farg'ona vodiysida esa 0,2 gektardan kam er maydoni kelgusida yanada qisqarib boradi;

- aholi sonining tez suratlarda o'sishi munosabati bilan avvalo mintaqadagi imkoniyatlarni o'zlashtirish, xususan, O'zbekistonning o'zida sug'oriladigan erlarni 4 million gektardan 10 million gektarga etkazish.

Paxta yakka hokimligi respublika iqtisodiyotining bir yoqlama rivojlanib, Ittifoqning xom ashyo bazasiga aylanib qolishiga olib keldi. Natijada O'zbekiston eng oddiy sanoat mahsulotlariga bo'lgan o'z ehtiyojining yarmini ham qondirishga qodir bo'lmay qoldi. Etishtirilgan paxtaning atigi 7 foizi respublikada qayta ishlandi. Bir qancha viloyat va tumanlarda ekin maydonlari nisbatida paxtazorlar 75-80 foizni tashkil qildi. Oqibatda asrlar davomida chetga don, meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chiqargan mintaqa bunday mahsulotlarning yirik iste'mol qiluvchisiga aylandi.

Islom Karimov rahbarligida boshlangan islohotlar tufayli bir ikki yilda ahvol asta-sekin o'nglandi, paxta maydonlari qisqardi (1987 yilda 2 million 108 ming gektar erga chigit ekilgan bo'lsa, 1990 yilda 1 million 826 ming gektar erda paxta etishtirildi). Sug'oriladigan erlarni paxtadan bo'shatib olish jamoa va davlat xo'jaligi hududlarida tomorqa uchastkalarini kengaytirish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun er ajratib berish kabi katta ijtimoiy masalani qisman hal etish imkonini berdi. Shunisi diqqatga sazovorki, paxta hosildorligining ortishi (hektar hisobiga 23,1 tsentnerdan 27,7 tsentnerga etishi) tufayli yalpi paxta etishtirish kamaymadi. Paxtachilik bundan bo'yon ham qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib qolaveradi, lekin yakka hokimligiga qaytilmaydi deb, bu soha istiqbolini belgilab berdi Yurtboshimiz.

O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'lini tanlashda respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini, albatta, e'tiborga olish kerakligi ham o'sha davrda asoslangani "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida atroflicha bayon qilingan.

Birinchidan, sug'orish zonalarida aholi zich joylashgani. Bu joylarda er tanqisligi, respublikamizning aksariyat mintaqalarida har bir mehnatchiga 1-1,5 gektar va undan ham ozroq er to'g'ri kelishi, bunday joylarga erni xususiy mulk sifatida bo'lib berish katta fojeaga aylanib ketishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ikkinchidan, respublikamizdagi sug'oriladigan dehqonchilik, katta-katta kanallar, sug'orish va drenaj tarmoqlari, sug'oriladigan dalalar bilan bog'liq bo'lgan yaxlit er-suv kompleksini yuzaga keltirishi, bunday sharoitda erning o'zini xususiy mulk sifatida foydalanishga topshirish ma'no kasb etmasligi qayd etiladi.

Uchinchidan, o'lkamizda asosiy fondlar suv xo'jaligi vositalari, mashina-traktorlar, chorvachilik komplekslari, katta bog'dorchilik – uzumchilik xo'jaliklari tarzida shakllangani, bu esa keng ko'lamda asosiy ishlab chiqarish vositalarini yakka xo'jaliklarga bo'lib berish mumkin emasligini anglatishi isbotlab berildi.

To'rtinchidan, faqat paxta etishtirishga ixtisoslashib qolish, ayni xo'jalik maydonlarining kengligi (1 ming gektardan boshlab to 6-8 ming gektargacha bo'lishi), sug'oriladigan paykallarning 4-12 gektar erni egallashi, mehnatning 80

foiziga qadar qismi mexanizmlar yordamida bajarilishi o'sha davrda jamoa va davlat xo'jaliklarini tarqatib yuborishni asossiz qilib qo'ygan bo'lsa-da, ayni paytda, jamoa va davlat xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablariga javob bermay qolgani haqli ravishda ko'rsatib o'tildi.

Qishloq xo'jaligi sohasi, uning tarmoqlarini yangi ish uslubiga o'tkazayotgan islohotning asosiy maqsadi – avvalombor, dehqonlarning ishdan manfaatdorligini tubdan o'zgartirish, o'z mehnatining hosili, pirovard natijasini birinchi navbatda ularning o'ziga qaytarish, turmush darajasini, saviyasini ko'tarishdan iborat edi. Shunga asoslanib, jamoa va davlat xo'jaliklarini tubdan o'zgartirib, shaxsiy, kooperativ va dehqon-fermer xo'jaliklariga keng ko'lamda yo'l ochib berish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Davlatimiz rahbari o'sha davrdagi jamoa va davlat xo'jaliklarining xo'jalik yuritish mexanizmini qayta qurishni, bir tomndan, rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan usullarini bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy usullar bilan almashtirib, boshqaruvning butun mexanizmini shaxs va mehnat jamoasining moddiy manfaatdorligi qoidalari asosida kam sarf-harajat bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga erishishga qaratish zarurligini; boshqa tomonidan, mavjud xo'jaliklarning ichki tuzilishi ijara-kooperativ usuliga, barcha ishlab chiqarish vositalari va xizmat ko'rsatish sohalari mustaqil xo'jalik hisobidan ijara, kooperativ va aktsiyadorlik jamoalariga almashirilishi zarurligini ko'rsatib berdi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi asosiy figura - dehqonlarimizning farovon yashashini ta'minlash, ularning daromadini ko'paytirishning asosiy manbalarini to'g'ri belgilalab olish muhim hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, er ajratib berilayotganda ko'pgina xo'jalik rahbarlari havotirda edi – ular jamoa xo'jaliklarida etishtiriladigan mahsulot kamayib ketmasmikan, deb o'ylashgan edi. Bu havotir o'rinsiz bo'lib chiqdi. 1990 yil jamoa xo'jaliklari mahsuloti 1989 yilgiga nisbatan 103 foizni tashkil etdi. Shaxsiy xo'jaliklarning bergan mahsuloti hajmi 108 foizga o'sdi.

O'zbekiston SSR Prezidentining "Shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining egalari bo'lmish dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ularning uyushmasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to'g'risida"gi Farmoniga binoan, dehqonlarga, shaxsiy yordamchi xo'jalik egalariga moliyaviy yordam tariqasida 1 milliard so'm ajratilishi ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashda katta omil bo'ldi. Qo'shimcha ajratilayotgan moliyaviy yordam, asosan, iqtisodiy jihatdan zaif xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlashga, ularning moddiy texnik bazasini kengaytirish va mustahkamlashga, mahsulotni qayta ishlaydigan kichik korxonalar qurish, transport vositalari, kichik mexanizatsiya texnikasi va chorva mollarini sotib olishga sarflandi.

Ishlab chiqarishning yangicha usuli – dehqon-fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligini inqirozdan olib chiqadigan yo'ldir. Bunda dehqon-fermer xo'jaligini asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

O'sha pallada respublikamiz qishloq xo'jaligida dehqon-fermer xo'jaligini rivojlantirishning quyidagi asosiy muammolarini bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratish zarur edi:

- qisqa vaqt ichida kerakli texnika vositalari bilan ta'minlash;
- talaba qilinayotgan kichik traktorlar, boshqa qulay va ixcham texnika vositalarini ishlab chiqarishni milliy sanoatimiz hali to'la qondira olmayotgan edi;
- chorvachilik mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarni em-xashak bilan etarlicha ta'minlash, mollarning zotini yaxshilash, ularning mahsuldorligini oshirish.

Prezidentimiz o'z rahbarlik faoliyatini boshlagan paytda respublikadagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siri yotishini, shunga ko'ra ularni hal etishning yagona to'g'ri yo'li – bu iqtisodiyotga bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi. Jumladan, ushbu jarayoning maqsadga muvofiq tarzda,

samarali va eng muhimi, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda amalga oshishi uchun quyidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratdi:

- O'zbekiston sharoitida bozor mexanizmining mohiyati va mazmuniga sergaklik bilan va har tomonlama real baho berish, uning joriy etilishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklar va noxush oqibatlarini ko'zda tutish, o'tish davri keskinliklarini yumshatishga yordam beradigan zarur mexanizmlarni oldindan yaratib qo'yish kerak;

- nonning chakana narxi, boshqa narxlardan ayri holda bir tomonlama oshirilishi g'alla bilan paxta, ulardan olinadigan mahsulotlar narxlarining ekvivalentligiga erishish yo'lidagi say'-harakatlarni, ko'zda tutilayotgan yoqilg'i, metall va texnika narxlarining oshirilishi esa pahtaga haq to'lashni ko'paytirish tartiblarini tamomila yo'qqa chiqaradi;

- respublika uchun katta ahamiyat kasb etuvchi boshlang'ich sharoitlarda hisobga olish va barobarlashtirish masalasiga chuqur e'tibor qaratish lozim;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasi haqidagi SSSR hukumatining ma'ruzasida investitsiyalarni qisqartirish masalasining qo'yilishi xato yondashuvdir, chunki ishlab chiqarishning mavjud texnikaviy va strukturaviy darajasida bunday siyosat battar qoloqlikka olib boradi;

- maqsadli, tarkibiy siyosatni, kapital qurilishdagi ustun yo'nalishlarni, aavlo, tugallanmagan qurilishlarni keskin qisqartirish maqsadida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur;

- aholi ijtimoiy himoyasining aniq a ta'sirchan mexanizmlari zarur;

- uy-joy qurilishiga alohida e'tibor berish lozim. Bunda yaqin besh yil ichida 67-68 million kvadrat metr uy-joyni foydalanishga topshirish, 6 milliondan ziyodroq kishining uy-joy sharoitini yaxshilash vazifasi qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi;

- aholiga kommunal xizmatni keskin yaxshilash, jumladan, aholining markazlashtirilgan suv ta'minoti darajasini 52 foizdan 67 foizga etkazish, Orolbo'yi zonasida esa 1995 yilgacha butun aholini markazlashtirilgan suv

ta'minotiga o'tkazish, qishloq aholi punktlarini gazlashtirish sur'atlarining ikki barobar ortishi ahamiyatlidir;

- respublikadagi ijtimoiy o'zgarishlarni hal etishga byudjet mablag'laridan tashqari vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning o'z hissasini qo'shishini ta'minlash kerak.

- respublikada o'tish davridagi resurs va imkoniyatlardan samarali foydalanish, aholining ijtimoiy himoyasi, ayniqsa, kam ta'minlangan aholining ijtimoiy himoyasining ishonchli mexanizmi ishlab chiqilishi;

- respublikada mulkchilikning qanday shakllari bo'lishini aniqlab olish;

- ayrim davlat mulkidagi ishlab chiqarish ob'ektlarini mulchilik va xo'jalik yurtlashning boshqa shakllariga aylantirishni belgilab olish;

- iste'mol mollari, xalq hunarmandchiligi, xalq ijodiyoti mahsulotlari ishlab chiqaradigan, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat sohasidagi yoki yordamchi korxonalar, ikkilamchi resurslarni va ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlaydigan katta birlashmalarning ayrim buyurtmalarini bajaradigan korxonalarini kichik xususiy korxonalar ko'rinishida tashkil etishning qonuniy tartibini aniq belgilab qo'yish;

- yirik ishlab chiqarish komplekslari, shu jumladan, mamlakatning boshqa mintaqalaridagi komplekslar tomonidan mayda va o'rtacha korxonalar, filiallar va tsexlar tashkil etilishini rag'batlantirish;

- yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari tuzilishida ularning mehnat jamoalarini uy-joy va ijtimoiy, madaniy, maishiy ob'ektlar bilan to'la ta'minlash;

- qo'shma korxonalar tashkil etish ishini faollashtirish va boshqalar.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'z umrini o'tab, bozor munosabatlariga o'tish harakatlari endigina ro'y berayotgan bir davrda, respublika Oliy Kengashining sessiyasida tasdiqlangan bozor munosabatlarga o'tishning dasturi O'zbekistonni konservatorlar respublikasi deb noo'rin tanqid qilinishiga sabab bo'ldi. Bunga javoban, respublikamiz rahbari jamiyat taraqqiyotidagi "sakrash"larning salbiy jihatlari, xususan, O'zbekistondagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy

sharoitda inqilobiy o'zgarishlar turli xavf-xatarlar bilan bog'liqligi, umuman "sakrab o'tish" g'oyasi esa respublika uchun og'ir, halokatli oqibatlariga sabab bo'lishini asoslab berdi. Shu bilan birga, boshqa respublikalarda xususiylashtirish to'g'risida gap sotilayotganda, aynan muxoliflar tomonidan o'rinsiz tanqid qilinayotgan "konservatorlar respublikasi"da birinchilardan bo'lib xususiy korxonalar paydo bo'ldi. Respublikada do'konlarni va maishiy xizmat ko'rsatish sohasini xususiylashtirish boshlanib, 1990 yilning o'zida 170 ming gektar er oilalarga meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berildi. Bu raqamni yarim million gektargacha etkazish belgilab olindi. So'nggi paytlargacha erlarning bor-yo'g'i 4,5 foizida dehqonchilik qilgan shaxsiy xo'jaliklar respublikadagi oziq-ovqat resurslarining 40 foiziga qadar bergani hisobga olinadigan bo'lsa, erlarning umumiy salmog'ida bunday uchastkalar hajmi ikki barobardan ziyod oshganda oziq - ovqat mahsulotlari hajmi sezilarli darajada oshishi muqarrar.

Yurtboshimizni O'zbekistonning haqiqiy iqtisodiy mustaqilligi masalasi qattiq tashvishga solib, o'ylantirar edi. Agar respublika iqtisodiy quvvatini tashkil etadigan barcha asosiy fondlar o'sha davrda 100 milliard so'm deb hisoblansa, amal qilayotgan tartibga ko'ra, qariyb 30 milliard so'm pul Ittifoq ixtiyorida edi. Ishlab chiqarishning asosiy fondlarida esa bu mutanosiblik yanada yomon bo'lib, mablag'larning beshdan ikki qismi Ittifoq tasarrufida, shu jumladan, sanoatda ana shu mablag'larning deyarli 70 foizi, transportda hamda moddiy- texnik ta'minotda, ilm-fanda 30 foizga yaqin Ittifoqqa tegishli edi.

Bundan ko'rinadika, Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan barcha davlat mulki (bu hamma asosiy fondlarning deyarli 90 foizini takil etadi) "Butun sovet xalqiga tegishlidir" degan qoida hech qanday real asosga ega emas edi. Respublikamiz o'z boyliklarini o'zi tasarruf eta olmas ekan, undan xalq manfaati yo'lida, samarali foydalanish haqida umuman gap bo'lishi mumkin emasdi.

Shunga ko'ra, respublika Oliy Sovetining doimiy komissiyalarida O'zbekistonning butun tarixi davomida birinchi marta mulkchilik to'g'risidagi qonunni tayyorlashga kirishildi. Bunda quyidagi masalalar muhim deb topildi:

Birinchi: respublika mulki mustaqil va u federatsiyadan ajratilgan.

Ikkinchi: o'lkamiz zamini, er osti boyliklari. Korxonalar va tashkilotlari O'zbekistonning mutlaqo o'z mulki hisoblanadi. Ana shu boyliklar mustaqilligimizni, respublikamizning madaniy va tarixiy qadriyatlarini ta'minlaydi.

Uchinchi: O'zbekistonda mulkchilikning xilma-xil shakllari rivojlantirilib, ularning teng huquqliligi ta'minlanadi.

Prezidentimiz bozor munosabatlariga o'tish muammolarini sinchkovlik bilan o'rganib, ularni hal etishda o'ta ehtiyotkorlik bilan yondaishi masalalariga e'tibor qaratar ekan, ayniqsa, xususiy korxonalarining tashkil etilishi borasidagi chuqur fikr-mulohazalarini bayon etdi. Maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, mahsulotni qayta ishlovchi kichik-kichik korxonalarini sotish tadbirini ko'rish zarurligi quyidagilar orqali izohlanadi:

Birinchi, bu korxonalarining ko'pchiligi kam rentabelli yoki zarar ko'radigan korxonalar bo'lib, ularni xususiy kishilarga sotish byudjet xarajatlarining odini olish va qo'shimcha daromadlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Ikkinchi, bu mayda shaxobchalar aslida yarim xususiy mulk bo'lib, vazirliklar, idoralar va ijroiya komitetlarda ular bilan hech kim chinakamiga shug'ullanmayapti.

Uchinchi, ishlab chiqarishni jonlantirish, raqobat uchun shart-sharoit yaratish, xo'jalik yuritishning yanada samarali shakllarini tanlab olish maqsadida mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi e'lon qilinmoqda.

Binobarin, mulkchilik va xo'jalik yurtishning turli shakllari ustidan har tomonlama nazorat o'rnatish kerak, biroq bu holat xo'jalik ishlariga to'g'ridan-to'g'ri aralashish hamda tashabbusni bo'g'ish uchun asos bo'lmasligi lozim. Nazorat faqat belgilangan qonunlar, normalar va qoidalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashi va moliyaviy, soliq tusiga, xullas, iqtisodiy tusga ega bo'lishi kerak.

Shu munosabat bilan Moliya ministrligi, Mehnat va ijtimoiy masalalar davlat komiteti, Adliya ministrligi boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda korxonalarni xususiy mulkka o'tkazish bilan bog'liq quyidagi masalalarni izchil ishlab chiqishlari kerakligi ta'kidlandi.

Birinchi – ushbu korxonada ishlovchilar va shu korxonaga egalarning maqomi (mehnat daftarchasi, ish staji, pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy himoyaning boshqa shakllari).

Ikkinchi – mehnatga haq to'lashning, shu jumladan, yollanma ishchilar uchun eng kam ish haqi belgilashning shakllari va shartlari.

Uchinchi – xususiy mulkka o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lgan tarmoqlar doirasi va korxonalar miqdori.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Prezidentimiz Islom Karimovning respublika rahbari sifatidagi faoliyati hayotning boshqa ko'plab jabhalari qatorida ijtimoiy va iqtisodiy ahvolni tubdan o'zgartirish, bunda eng avvalo barcha muammo va masalalar echimiga xalqimiz manfaati orqali yondashish, sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi amal qilishi natijasida vujudga kelgan salbiy holatlarni tezlik bilan bartaraf etish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Bularning barchasini “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini mutolaa qilish jarayonida anglab, Yurtboshimizning o'sha o'ta og'ir vaziyatlarda ham o'n yillar oldingi istiqbolini ko'zlab, oqilona siyosat olib borganiga takror va takror ishonch hosil qilamiz.

II-BOB. INSON MANFAATI, HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASH

2.1. Huquqiy mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarning asosiy maqsadi O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bu yuksak maqsadni ro'yobga chiqarishda barcha sohalarda, xususan, sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda bugungi kunda sud-huquq tizimida izchil amalga oshirilayotgan tub islohotlar, aslida, O'zbekiston hali davlat mustaqilligiga erishmasdan oldin I.A.Karimov rahbarligida boshlangan ishlarning davomidir. Buni "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobidagi kontseptual fikr va g'oyalar tasdiqlaydi.

Mantiq fanida hukm tushunchalarga tayanadi, deyiladi¹. O'zbekistonning sud-huquq tizimi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yangi asosda barpo etila bordi, deb xulosa chiqarishdan avval o'zak tushuncha ("sud-huquq tizimi")ning mazmunini anglashimiz, uning mohiyatini tushinib olishimiz lozim. Shunday ekan, so'zni avvalo "sud-huquq tizimi" tushunchasining ma'no-mazmunini yoritib berishdan boshlaymiz. "Sud- huquq tizimi" tushunchasi "sud tizimi" va "huquq tizimi" tushunchalarining birikmasidan iborat umumiy hosila tushunchadir. Demak, "sud tizimi", "huquq tizimi" tushunchalarining mazmunini tushunish orqali "sud-huquq tizimi" tushunchasining mazmunini aniqlab olamiz.

¹ Масалан, қаранг: Хайруллаев М. Мантиқ.- Т: "Ўқитувчи", 1993.-103- бет; Раҳимов И. Логикадан амалий машғулотлар ва методик тавсиялар (университетларнинг гуманитар факультетлари талабалари учун ўқув кўлланма),- Т: "Ўқитувчи", 1988, 53-бет.

Sud tizimi – bu o'z vakolatlari va oldiga qo'yilgan vazifalar hamda maqsadlarga muvofiq tuzilgan sudlar majmuidir¹. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 107-moddasining 1-qismiga ko'ra, “O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat”².

Bu moddada O'zbekiston respublikasi sud tizimining mohiyati, tizimining tarkibiy tuzilmalari, vakolat muddatlari kabi masalalar ochib berilgan.

Quyida keltirilgan konstitutsiyaviy norma bugungi kunda amalda bo'lgan O'zbekiston sud tizimining tuzilishi to'g'risida yaqqol ma'lumot beradi.

Biroq bu ma'lumot bizning mavzumiz bo'lgan- tadqiq etilayotgan yillar (1989-1991) da O'zbekistonda mavjud bo'lgan sud tizimini aks ettirmaydi. Biz bu o'rinda sud tizimi to'g'risida dastlabki va umumiy tasavvurlarni hosil qilish fikridan kelib chiqib shunday yo'l tutdik. Tadqiq etilayotgan uch yillikdagi mavjud sud tizimini va O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rahbarligida mamlakatimizda boshlangan tub islohotlarning o'sha davr sud tizimidagi amaliy ifodasi

qanday kechganini quyiroqda yoritishni nazarda tutgan holda, endi e'tiborimizni «huquq tizimi» tushunchasi deganda nima tushunilishini aniqlashtirib olishga qarataylik.

¹ Костецкий В.А. Конституция Республики Узбекистан. Словарь-справочный для учащихся общеобразовательных школ, колледжей и лицеев. – Т.: “Билим”, 2003. стр. 107.

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси: Ўн иккинчи чакирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида қабул қилинган 2003 йил 24 апрелдаги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига мувофиқ Конституциясининг XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига тузатиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг 2-қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг 1-қисмига ўзгартириш киритилган) – Т.: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2009. 29-бет.

Huquq tizimi – milliy huquq tuzilishi bo'lib. Jamiyatdagi mavjud huquq, normalarining ma'lum qismlarga bo'linishidir¹. Huquq tizimi turli huquq sohalaridan iborat. Ularning har biri o'zining predmetiga va ana shu predmet mazmunini tashkil qiluvchi munosabatlarni tartibga solish uslubiga ega. Huquq sohalari tuzilishida normalar, institutlar, yordamchi institutlar (sub- institutlar), sohaosti huquqlar ajralib, o'z navbatida, sohaning umumiy va maxsus qismlarini tashkil qiladi.²

Huquq tizimi, asosan, ikki guruhga – ommaviy va xususiy huquqqa bo'linadi. Ommaviy huquq tarkibiga jamiyat va uning a'zolari, davlat, davlat organlari va tashkilotlarining manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan va bir tarafning ikkinchi tarafga bo'ysunishiga asoslangan huquq normalaridan tashkil topgan huquq sohalari (konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, soliq huquqi va boshqalar) kiradi. Xususiy huquq tarkibiga taraflari teng huquqqa ega bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi normalaridan tashkil topgan huquq sohalari (fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat huquqi va boshqalar) kiradi. Shuning bilan bir qatorda, ommaviy huquq va xususiy huquqqa xos normalardan tashkil topgan kompleks (majmuaviy) huquq sohalari (ekologiya huquqi, er huquqi, bank huquqi va boshqalar) ham mavjud.

Demak, sud-huquq-tizimi tushunchasi ostida sud tizimi va huquq tizimi tushunchalari mazmunining yig'indisi tushunilmoqda. Sud- huquq tizimining yangi asosda barpo etish va isloh qilish mamlakatimizda mustaqillikka erishish ostanasidayoq amalga oshirilishi boshlangan yangilanishlarning tarkibiy qismi sanaladi. Endi esa bevosita 1989-1991 yillarda O'zbekistonda I.A.Karimov rahbarligida sud- huquq tizimini yangi asoslarda barpo etish borasida olib borilgan islohotlarning ko'lamini yoritish va tahlil etishga o'taylik.

¹ Юридик энциклопедия/ Юридик фанлари доктори, проф.У.Тожихоновнинг умумий тахрири остида.-Т: “Шарк”, 2001.651-бет.

² Раҳмонкулов Х. Ҳуқуқ тизими ва унинг соҳалари/ масъул муҳаррир Р.Ж.Рўзиев; Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти./- Т.Фалсафа ва ҳуқуқ, институти. 2005.5-бет.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish arafasida mamlakatimiz rahbari I.A.Karimovning jasorati va qat'iyati, aniq va oliy maqsadli – xalqimiz mustaqilligi va ozodligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishiga erishish, sud-huquq tizimini mutlaqo yangi asoslarda yaratish borasida olib borgan sa'y-harakatlarini tushunish va to'g'ri baholay olish uchun, albatta, o'sha davrda SSSR va O'zbekistonda yuz bergan voqealarga xolisona baho bermoq darkor.

Ma'lumki, o'tgan asrning 80-yillari o'rtalariga kelib SSSRda kuchaygan tanglik holati mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. KPSSning kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning inqiroziga sabab bo'ldi.¹ Xalq xo'jaligidagi tanglik holatlarining keskin suratda va shitob bilan kuchayib borishi sotsialistik tizimning tayanch negizlariga tahdid soluvchi xatarli siyosiy tanglikka o'sib o'tdi. Butun jamiyatda keskin, tub o'zgarishlar qilish zarurati paydo bo'ldi. Kirib qolingan boshi berk ko'chadan chiqib ketish yo'llari izlandi. Nihoyat, 1985 yilning bahorida KPSS Markaziy Qo'mitasining aprel plenumi sovet jamiyatini qayta qurish, uning barcha sohalarida tub yangilanishlar va o'zgarishlar yasash yo'lini e'lon qildi. Qayta qurish sovet jamiyatini rivojlantirishning ob'ektiv ehtiyoji sifatida baholandi. Qayta qurish sotsialistik jamiyat rivojining chuqur jarayonlaridan o'sib chiqqan zarurat sifatida ta'riflandi. Qayta qurishning tarkibiy qismi jamiyat hayotini demokratlashtirish ekani belgilandi.

Lekin bularning barchasi quruq ritorika va deklaratsiya bo'lib, hech qanday amaliy natija bermadi. Aksincha, ular sovet jamiyatining tub asoslari adolatsizlik negiziga qurilganligini rivojlanishga noqobil ekanini oshkor etib qo'ydi. Agarki, sovet sud-huquq tizimini oladigan bo'lsak, u insonni himoya qiluvchi organ emas, aksincha, mustabid tuzum qo'lidagi insonlar va xalqlarni ezish quroli, repressiv mashinaga aylanib qolgan edi. Uning bunday g'ayriinsoniy mohiyati, ayniqsa, 80-

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2.Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги// Тузувчилар: М.Жўраев,Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ: Таҳрир ҳайъати: А.Азизхўжаев(раис) ва бошқ./.-Т: “Шарқ”, 2000.624-бет.

yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston va uning xalqiga nisbatan avj oldirilgan qatag'on kompaniyalari davrida yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekistonni paxtani terish va qayta ishlashdagi sun'iy ravishda o'ylab topilgan "o'g'irlik", "qo'shib yozish" holatlarini tergov qilish bilan markaziy prokratura va ichki ishlar organlari maxsus shug'ullandi. "Paxta ishi" eng shov-shuvli ish sifatida butun Ittifoqqa namoyish qilindi¹. Bir qator Rossiya gazetalarining zo'r berishi tufayli "paxta ishi" "o'zbeklar ishi"ga aylantirildi². O'zbekistonga va o'zbek xalqiga nisbatan qilingan bu adolatsizlik xalq ommasining sovetlar rejimiga nisbatan nafratini oshirdi, munosabatini o'zgartirdi³.

Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda o'zlikni anglash, til, madaniyat, tarix va kelajakka teran nazar solish, inson huquq va erkinliklarini har narsadan ustun qo'yishga bo'lgan intilish kuchayib bordi. Xususan, O'zbekistonda keng munozaralarga sabab bo'lgan muammolardan biri o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo'ldi. Bu muammo yuzasidan boshlangan harakat qudratli tus oldi, unda ziyolilar, talabalar va yoshlar faol ishtirok etdi. I.A.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyat bu masalani amaliy hal qilishga jasorat bilan kirishdi. Natijada o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida 1989 yil 21 oktyabrda "O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi⁴. Qonunning 1-moddasining 1-qismida

¹ "Аввало республикамиз раҳбарлигига И.А.Каримов келиб, у киши томонидан суд ва судьяларнинг қўллаб-қувватланганлиги натижасида Ўзбекистон Республикаси Олий суди "Пахта ишлари"га ҳуқуқий баҳо берди. Минглаб ҳамюртларимиз оилалари бағрига қайтди": Мингбоев У. Суд-фуқаролар ҳимоячиси. – Т.: ДИТАФ, 2001. 20-бет.

² "Пахта иши", "Ўзбеклар иши" сингари ишлар асосида ноҳақ камалиб, озодликдан маҳрум этилган шахслар кейинчалик шахсан Президент И.А.Каримов ташаббуси билан суд қарорлари асосида оқландилар. "Агар Президентимизнинг ташаббуслари бўлмаганда, ўша пайтларда на Олий суд, на прокуратура бу ишларни ("Пахта иши", "Ўзбеклар иши" сингари ишларни – таъкид Алиқул Раҳмоновники) қайта кўришга журъат қила олмас эдилар": Мингбоев У. Суд – фуқаролар ҳимоячиси. –Т.: ДИТАФ, 2001. 80-81-бетлар.

³ Ўзбекистоннинг янги тарихи.К.2. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида // Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ.; Таҳрир хайъати: А.Азизхўжаев (раис) ва бошқ./-. –Т.: "Шарқ", 2000. 660-бет.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги Қонунига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги 1995 йилнинг 21 декабрида қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Қонуни асосида "Давлат тили ҳақида"ги Қонуннинг янги таҳрири тасдиқланди.

“O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”¹, deb yozib qo‘yildi. Shunday qilib, o‘zbek tili davlat tili maqomini oldi.

Davlat hokimiyatining bo‘linish printsiplining jamiyatda amalda ro‘yobga chiqarilishi, ya‘ni hokimiyatlar bo‘linishining amalga oshirilishi har qanday davlatning demokratik xususiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Davlat hokimiyatining bo‘linish printsiplari davlat hokimiyati organlarining muvozanati va tengligini ta‘minlaydi. Mazkur printsiplarning oqilona ro‘yobga chiqarilishi orqali davlatda biror organ yoki shaxs tomonidan diktatura² o‘rnatilishining oldi olinadi, davlat boshqaruvi amalga oshirilishining ideal muvozanati ta‘minlanadi, davlat organlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zamin tayyorlanadi.

“O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi Qonunning 4-moddasining 1-qismini keltiramiz: “O‘zbekiston SSRda yashovchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun respublika davlat tilini etarli darajada bilishlari shart”³. Qonunning 5-moddasi (1-qism)da quyidagi huquqiy norma mustahkamlab qo‘yildi: “O‘zbekiston SSR davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida s‘ezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferentsiya, majlis va kengashlar respublikaning davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimai ta‘minlanadi”⁴. Qonunda keltirilgan ana shu moddalar (ularning qismlari)da O‘zbekistonda davlat hokimiyati organlari o‘z faoliyatini davlat tilida yuritishlari lozimligi ko‘rsatilgan. Shu o‘rinda davlat hokimiyati va uning bo‘linishi printsiplari to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot berishni ko‘zlab, kichik bir chekinish qilamiz. Kezi kelganda ta‘kidlamoq lozimki, davlatda hokimiyatning mavjud bo‘lishi davlatning asosiy belgilaridan biri sanaladi. Davlatdagi mavjud hokimiyat (davlat hokimiyati) esa ma‘lum printsipl asosida taqsimlanadi, bo‘linadi. Bu “davlat hokimiyatining

¹ Qonunning matni b‘yicha qarang: Ona tili – Davlat tili: (Ўқув қўлланма-мажмуа) Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонунига оид ҳужжатлар (Тузувчилар: Н.Жумахўжа, Р.Жомонов. –Т.: “Адолат”, 2004. 80-бет. (Давлат миллат рамзлари).

² “Диктатура” сўзи лотинча dictatura сўзидан олинган бўлиб, “чекланмаган ҳокимият” маъносини билдиради. Қаранг: Ҳуқуқшуносликка оид ўзлашма терминлар. Тузувчилар: Бектемиров Ҳ., Холмедов Ҳ., Содиқов С. – Т.: “Адолат”, 1999. 27-бет.

³ : Она тили – Давлат тили: (Ўқув қўлланма-мажмуа) Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонунига оид ҳужжатлар (Тузувчилар: Н.Жумахўжа, Р.Жомонов. –Т.: “Адолат”, 2004. 6-бет.

⁴ Ўша ўқув қўлланма – мажмуа, 7-бет.

bo'linish printsiplari" deb ataladi. Mazkur printsiplarga ko'ra, davlat hokimiyati bir-biri bilan chambarchas bog'langan va ayni vaqtda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan quyidagi uch shaxobchaga bo'linadi: qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyati. Ana shu uch hokimiyat birgalikda davlat hokimiyatini tashkil etadi.

Davlat hokimiyatining bo'linish printsiplari davlat hokimiyati organlarining kelishib, bir-birini nazorat qilib va o'zaro uyg'unlikda ishlashiga imkon yaratadi. Shuning uchun hokimiyatning bo'linish printsiplari qonun topishi demokratik davlatga xos jihaddir.

To'qqizinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1978 yil 19 aprelda O'zbekiston SSRning Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) qabul qilingan¹. Garchi, O'zbekiston SSR Markazga qaram respublikalardan biri bo'lgan va mustaqil davlat bo'lmagan bo'lsa-da, garchi O'zbekiston SSRning Konstitutsiyasida davlat hokimiyatining bo'linish printsiplari muvofiq davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatidan iborat ekani ochiq-oydin normativ asosda belgilab qo'yilmagan bo'lsa-da, O'zbekiston SSRda qonunlar chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari mavjud bo'lgan. "O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida"gi Qonunning tegishli moddalariga muvofiq, davlat hokimiyati organlari o'z faoliyatini endilikda davlat tilida, ya'ni o'zbek tilida olib boradigan bo'lishdi. Qonuning 6-moddasiga asosan, O'zbekiston SSR oliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qonun, qaror va boshqa hujjatlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida tayyorlanadigan, qabul qilinadigan va e'lon etiladigan bo'ldi.

"O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida"gi Qonunning 10-moddasida O'zbekistonda mustaqillikka erishish ostonasida sud tizimining yangicha asoslarda barpo etila boshlanganini ko'rsatuvchi dalillardan biri, bu tizimda boshlangan tub

¹ Ўзбекистон ССР Конституциясининг матни бўйича қаранг: Конституция (Основной Закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. –Т.: "Ўзбекистан", 1984.

amaliy yangilanishlarning debochasi bo'lgani shubhasiz. Keling, Qonunning 10-moddasi bilan yaqindan tanishaylik:

“O'zbekiston SSRda sudlov o'zbek, qoraqalpoq tillarida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni sudda qatnashuvchi kishilar bilmagan taqdirda bu kishilar uchun tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston SSRda davlat hakamligi mahkamalarida korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish, hal qilishda o'zbek tili qo'llanadi. Zarurat bo'lganda xo'jalik nizolari millatlararo muomila tilida ham qarab chiqilishi mumkin. O'zbekiston SSR va boshqa respublikalar korxonalari, tashkilotlari va muassasalari o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish, hal qilishda ham millatlararo muomala tili qo'llanadi”.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishini barcha birdek xursandchilik va mamnunlik bilan kutib oldi. Ma'lumki, bu qonun qabul qilingan vaqtda hali SSSR mavjud va mustabid tuzum o'z umrini o'tab bo'lmagan edi. Mustabid tuzum jon talvasasida so'nggi nafaslarini olardi. Xalqimizning o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish borasidagi jo'shqin harakatini mustaqillik yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida baholash mumkin.

“Til haqidagi qonun uchun harakat dastlab O'zkompartiya Markaziy qo'mitasi deb atalmish idora tomonidan qarshiliklarga uchradi. Ne baxtki, bu rahbariyat o'zgarib, respublikaimzning bugungi Prezidenti Islom Karimov rahbar bo'lgach, bu harakatga munosabat o'zgardi va ushbu qonun qabul qilindi. Shu o'rinda davlat rahbarlarining tom ma'nodagi jasoratlarini ham ta'kidlash kerak. Bu ham tarixiy voqealar silsilasiga kiradi”¹.

“O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqining o'zligini anglashining o'sishi va respublikada millatlaro

¹ Тохир Малик. Ўнинчи довон. // “Хуқуқ – Право - Law” илмий-назарий юридик журнали, № 4 (8), 1999, 38-39-бетлар.

hamjihatlikning saqlanib qolishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, "davlat mustaqilligi yo'lidagi birinchi muvaffaqiyatimiz, birinchi g'alabamiz bo'ldi"¹.

2.2. Inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi

Prezidentimiz Islom Karimov respublika rahbari bo'lib ish boshlagan birinchi kunlaridanoq inson manfaatlarini, xalqimiz manfaatlarining eng asosiy ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Buni Yurtboshimiz 1989 yil 24 iyunda Ministrlar sovetida bo'lib o'tgan yig'ilishdagi nutqi yaqqol tasdiqlaydi. Ushbu nutqning asosiy qismi butun yurtimiz, jumladan, Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining o'tkir muammolarini hal qilish, xususan, odamlarni ish bilan, qo'shimcha daromad manbalari bilan ta'minlash, mahalliy muhandis-texnik kadrlar, ishchilarni tayyorlash, yoshlarga e'tibor, ijtimoiy sohadagi adolatsizliklarga barham berish masalalariga bag'ishlangan edi.

Ma'lumki, XX asrning 60-yillaridan boshlab sobiq SSSR iqtisodiyotida ziddiyatlar kuchayib bordi, amaldagi xo'jalik yuritish mexanizmlarining mazkur ziddiyatlarni bartaraf etishga noqobilligi namoyon bo'la boshlagan edi. Iqtisodiyotga sarf-xarajatlar ortsa-da, rivojlanish sur'ati keskin pasayib boraverdi.

¹ Иброҳимов. Бизким, ўзбеклар... Миллий давлатчилигимиз асослари ҳақида мулоҳазалар / Сўзбоши: Фафуров И. –Т.: “Шарқ”, 2001. 213-бет.

Ishlab chiqarishni texnikaviy rivojlantirishda va aholi turmush darajasida g'arb mamlakatlaridan ancha orqada qolish ko'zga tashlandi.

KPSSning barcha s'ezdlarida rivojlanishning intensiv shakliga o'tish zarurligi qayta-qayta ta'kidlangan bo'lsa-da, amalda bu vazifalar quruq gapligicha qolaverdi. Boshqaruvning ma'muriy- buyruqbozlik tizimi yaratgan samarasiz mexanizm ijtimoiy- iqtisodiy hayotda progressiv qayta o'zgarishlarni, iqtisodiyotni isloh qilish yo'lidagi (1979 yil) urunishlarni barbod qildi. So'z bilan ish o'rtasida uzilish ro'y berdi.

Partiya hujjatlaridagi sotsializmni har tomonlama rejali rivojlantirish g'oyasi, aslida yagona hukmron maqsadga - markazlashgan mustabid davlatni mustahkamlashga qaratilgan edi. **“Rejali rahbarlik qilish, rivojlanishda sarf-xarajatdan iborat bo'lgan yondashuv, respublikalarda ishlab chiqarishning bir sohaga ixtisoslashib, iqtisodiy majburiyat darajasiga ko'tarilishi, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga, ijtimoiy- madaniy jabhalarga ta'sir etib, iqtisodiy o'sishning umumiy dinamikasini izdan chiqarib yubordi”¹**

“Bir qarashda L.Brejiev rahbarlik qilgan, tarixda, “Turg'unlik” deb nom olgan davrda mamlakatda birmuncha sokinlik va tinch taraqqiyot ta'minlangandek edi. Biroq, insonning eng katta iqtidori- daholik qudrati so'ndirildi. U to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish vositasi bo'lib qoldi. Fikrlamay yashash, inson tafakkurini cheklash, munosabat bildirish kabi aqliy salohiyat barham topdi. Mutelik va tobelik kayfiyati chuqur ildiz otdi. Bu asta-sekinlik bilan o'z o'tmishini unitish, kelajakka ko'r-ko'rona nazar tashlash va shunchaki kun kechirish kayfiyatini chuqurlashtirdi”²

Kommunistik mafkura odamlar qalbiga tahdid soldi. Hukmron g'oya oldida fuqaro o'zini nochor his etadigan, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaraolmaydigan bo'lib qoldi. Ana shunday tarzda xalqning erkin mehnat qilishiga bo'lgan rag'batini

¹ Досумов Р. Перестройка управления промышленных производством в новых условиях хозяйствования.-Т: “Фан”, 1990.С.7.

² Жўраев Н. Тафаккурдаги эврилиш.- Т.”Шарқ”,2001.17-бет.

so'ndirildi. Mustaqil fikrlaydigan, yuz bergan voqea-hodisalarga mustaqil baho beradigan kishilar o'zboshimcha, mahmadona deb qoralanar, tazyiqqa olinar edi. Bu tuzum shunday nosog'lom muhitni vujudga keltirgan ediki, natijada layoqatsiz, fikrsiz, laganbardor, boshliqqa ta'zim, xodimga zug'um ko'rsatadiganlar qadr-qimmat topib yashardi. Negaki, mustamlakachilik siyosatining tabiati shuni taqozo qilar edi.

Bularning barchasi jamiyatning ma'naviy tanazzulini tezlashtirdi. Xalq manfaatini o'ylagan, uning ongiga nur, qalbiga ziyo bag'ishlashga intilgan, vijdon va aql bilan ishlashga, hurriyat uchun kurashga chorlaganlar esa kommunistik partiyaning labbaygo'y yugurdaklari tomonidan so'roq-tergovga tutilar, ma'naviy jihatdan badnom qilinar, ba'zan esa hatto jismoniy mahv etilar edi. Natijada bunday beayov va shafqatsiz bedodliklardan ogoh bo'lib turgan xalq butunlay umidsizlikka tushdi. Jamiyatda va partiyaga, na siyosatga, na davlat va uning yo'l boshchilariga ishonch qoldi.

“Hayotga befarq qarash, loqaydlik aksariyat ko'pchilikning yashash tarziga aylandi. “Sovet kishisi” o'z soyasidan cho'chib yashaydigan bo'lib qoldi. Chunki yuragining tub-tubiga qo'rquv bilan qoziq qilib qoqilgan tobelik, mutelik tuyg'usi uni tirik murda holiga solib qo'ygan edi”.¹

Shu o'rinda “Inson manfaati” tushunchasiga aniqlik kiritsak. Inson manfaatlari iste'mol buyumlariga emas, balki, ushbu buyumlardan to'liqroq foydalanishga imkon beruvchi ijtimoiy shart-sharoitlarga, eng avvalo, ehtiyojlarni qondiradigan moddiy va ma'naviy ne'matlarga yo'naltirilgandir.

Manfaatlar su'bektleri bo'yicha shaxsiy, guruhaviy, umumjamiyat manfaatlarga, yo'nalishi bo'yicha esa iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy manfaatlarga bo'linadi.

Inson manfaati to'g'risida so'z borar ekan, bir necha raqamlar ustida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Istiqloq arafasida mamlakatimizdan olib chiqib ketilayotgan boyliklarning 70 foizini faqat xom ashyo tashkil qilar, chetdan esa 70

¹ Ислом каримов. Биз танлаган йўл- демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Асарлар. 11- жилд.-Т: “Ўзбекистон”, 2003. 196-бет.

foiz tayyor mahsulot olib kelinar edi. Bunda ma'muriy-buyruqbozlik siyosati qishloqlarimiz infratuzilmasiga, umuman ijtimoiy hayotga juda katta salbiy ta'sir o'tkazdi.

Mustaqillikka bo'lgan davr qishloq aholisining toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanishi, sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat sohalarida bir qator ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi. Masalan, respublikaning tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi bor-yo'g'i 4 foizni tashkil etardi. Surxandaryo viloyatida bu ko'rsatkich 3,2 foizni, Qashdaryoda 5,7 foizni, Namanganda 10,5 foizni, Andijonda 11 foizni tashkil qilardi. Yoki qishloq aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi Xorazm viloyatida 13,2 foizni, Buxoro viloyati 15 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa bu raqam 21,4 foizni tashkil etardi¹.

Umuman, suv va issilik, elektr energiyasi, temir yo'l va avtomobil yo'llari, kommunikatsiya tarmoqlari etib bormagan bo'm-bo'sh chekka qishloqlarimiz ham mavjud edi. Binobarin, aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilmagan edi. Agar respublika 1988 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mollari oboroti 768 so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich SSSR bo'yicha 1282 so'mni, Gruziyada 1163 so'mni, Litvada 1609 so'mni, Moldavada 1172 so'mni, Turkmanistonda 860 so'mni, Estoniyada esa eng yuqori -1965 so'mni tashkil etgan.

Shu bilan bir qatorda mustabid tuzum davrida xalqimizning haqiqiy tarixi, boy madaniy merosi, urf-odat va an'analari, Navro'z bayrami, Ramazon va Qurbon hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'qiqlab qo'yilgan edi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband va boshqa aziz avliyolarimiz merosiga nisbatan adolatsizlik hukm surdi.

Ayrim mahalliy rahbarlar amal pillapoyasidan ko'tarilish ilinjida o'z ajdodlari milliy qadriyatlarini rad etishgacha borishdi. Xalqimizning urf-odat va an'analari, madaniyati obdan oyoqosti qilindi, ona tilining qo'llanish sohasi sun'iy tarzda cheklab qo'yildi. Hatto, shundoq ham milliy an'analardan ancha olisda

¹ Тухлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 1992. 125-бет.

bo'lgan ayrim san'at turlari ham kimlargadir maqbul bo'lmay qoldi va ularni yangilashga urindilar. Hatto milliy libos ham qoralandi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, “Bizga zarba bo'lib tushgan eng og'ir tanglik iqtisodiy emas, balki ma'naviy tanglikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni g'oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko'ra ancha mashaqqatli bo'ladi. Axir, yaqindagina emasmidi, kommunist, ayniqsa, u yuqoriroq lavozimda bo'lsa, o'z yaqin kishilari bilan oxirgi marta vidolashish uchun qabristonga ham borolmasdi. Dafn marosimida ishtirok etish eng katta ayb sanalib, bunday odamni partiyadan o'chirib, ishdan bo'shatishardi. Vijdon azobidan sal bo'lsa-da, qutulish, ayni paytda yillar bo'yi mehnat qilib erishgan imtiyozlardan mahrum bo'lmaslik uchun odamlar qarindosh-urug'lari, hatto, ota-onasi vafot etganda kasalxonaga yotib olishar yoki “shoshilinch komandirovka”ga ketib qolishar edi. Ana shundan keyin ham biz, odamlar hech nimaga ishonmay qo'yishgan, ularda hech qanday muqaddas narsa yo'q, deb aytishga qanday tilimiz borar edi?”¹.

Bir necha o'n yillar mobaynida respublika iqtisodiyoti Markazdan boshqariladigan yagona xalq xo'jaligi majmuining tarkibiy qismiga aylangan edi. Markaz qabul qilgan ko'pgina qarorlar O'zbekistonning manfaatlaridan yiroq bo'lgan. Xullas, chor imperiyasi davridagidek, respublika arzon xom ashyo va strategik mineral resruslar etkazib beruvchi, tayyor mahsulot sotiladigan qulay bozorga aylanib qolaverdi, ya'ni u xom ashyo bazasi bo'lib keldi. Xom ashyo bazasida yashagan xalqning kosasi oqarmadi.

Prezidentimizning 1990 yildagi nutqida o'sha paytdagi ahvol aniq yoritilgan: “O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 175-бет.

respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti.

Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobor binolarda joylashtirilganini aytishning o'zi kifoya. Juda o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro'yxatini yanada davom ettirish mumkin. Buni avvalo shundan ko'rsa bo'ladiki, insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi bir yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmayapti”¹.

Ittifoqda rahbarlik lavozimini Yu.Andropov egallagan davrda mamlakatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish siyosati qattiqqo'llik bilan olib borildi. Ko'p yillar DXQni boshqargan bu shaxs, o'z tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatda tobora chuqurlashayotgan inqiroz sabablarini rahbar kadrlar faoliyatiga bog'ladi. KPSS MQning 1983 yil iyundagi plenumining birinchi ish kunida KPSS MQning kotibi K.Chernenko qilgan ma'ruzasida ham jamiyatdagi poraxo'rlik illatlarining asosiy sabablarini “biron-bir xodimning xatolaridan rivojlanishning aniq muammolaridan va qiyinchiliklaridan” qidirish lozimligi ta'kidlandi.² Bosh kotib Yu.Andropov ma'ruzasida esa ideologiya frontidagi asosiy vazifalar belgilab berildi.

Sobiq Ittifoq rahbarlari Sovet davlatini qamrab olgan inqiroz xatolarini mavjud tuzum negizida emas, balki yuzaga kelgan salbiy illatlarda deb, O'zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab olib, tarixda “Paxta ishi”, keyinchalik “O'zbeklar ishi” deb nomlangan siyosiy kompaniyani boshlab, aslida butun yurtimiz xalqiga qarshi qatag'onni amalga oshirishga kirishgani “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida ko'plab dalillar orqali ko'rsatib beriladi.

SSSR Fanlar akademiyasi olimlari o'tkazgan hisob-kitoblarga ko'ra, asli qo'shib yozishlar butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3 foiziga

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 175-бет.

² “Совет Ўзбекистони” газетаси, 1983 йил 15 июнь.

teng bo'lgan. Xomashyo etkazish sohasida esa qo'shib yozishlar 5 foizdan 25 foizgacha bo'lgan¹. Masalan, 1983 yilda Ozarbayjonda 667 ta sanoat korxonasi va qurilish tashkilotida qo'shib yozishga yo'l qo'yilgan. Moldaviyada esa qo'shib yozishlar nihoyatda avj olgan².

1983 yil sentyabrda SSSR Bosh prokurori A.Rekunkov topshirig'iga ko'ra, SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligida mamlakatning turli mintaqalaridan to'plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuzilib, O'zbekistonda faoliyat boshlaydi.³

Markazdan respublikamizga yuborilgan tekshiruvchilar esa mahalliy shart-sharoitni hisobga olmay, o'zbek xalqining milliy manfaatlari, madaniyati, qadr-qimmatini poymol etadi. O'zbekiston SSR KP MQ, Respublika Ministrlar Soveti, O'zbekiston SSR Oliy Soveti, O'zbekiston SSR Prokuraturasi, O'zbekiston SSR IIV kabi muhim boshqaruv bo'g'inlari shunday kadrlarning qo'liga o'tadi. Ular respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yanada keskinlashtirib yuboradi. Natijada, "O'zbekiston tergov usullari o'tkaziladigan maydon"ga aylanib qoladi⁴.

1989 yil 23 iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Kospartiyasi MQning XIV plenumida Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Kospartiyasi MQning birinchi kotibi etib saylandi. Ma'lumki, respublikamiz rahbari sifatida I.A.Karimov ish boshlagan paytda o'lkamizda uzoq yillar davomida hukm surgan kommunistik mafkura va faqat xomashyo etkazib berishga asoslangan bir yoqlama iqtisodiy siyosat har bir sohada o'zining halokatli salbiy ta'sirini keng miqyosda ko'rsata boshlagan edi. Ammo, O'zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan yangicha siyosat asoslari ishlab chiqilib, xalqimizning qadr-qimmatini himoya qilish, milliy mustaqillikka erishish sari dadil harakatlar boshlandi.

I.A.Karimov respublikamiz rahbari etib saylanib, ishga kirishgan kunning ertasigayoq, ya'ni 24 iyun kuni O'zbekiston SSR Ministrlari Sovetida katta majlis o'tkazdi va unda nutq so'zladi. Bu nutq mohiyati e'tiboriga ko'ra uning

¹ Немелов Н., Попов В. На переломе экономической перестройки в СССР – М.: Изд.АПН, 1998. С.44

² На пороге кризиса: нарастание застойных явлений в партии и обществе. –М.:Изд. Полит.лит., 1990. С.118.

³ Лиханов Д. Кома: "Оганёк" журналы, 1989 йил. № 4, 21-б.

⁴ "Тошкент ҳақиқати" газетаси, 1990 йил 3 февраль.

O'zbekiston rahbari sifatidagi birinchi nutqi ekani bilan ham alohida tarixiy ahamiyatga egadir. Ushbu chiqishda uning siyosiy etakchisiga xos barcha fazilatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zining keskin tanqidiy va amaliy ruhi bilan ajralib turadigan mazkur nutqda respublika rahbari O'zbekiston vujudga kelgan o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning sabablarini chuqur tahlil qilib, achchiq va haqqoniy bir xulosaga keladi. "Biz bundan bo'yon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi", deb yangi lavozimga qanday ulug' maqsad va mas'uliyat bilan kirishayotgani, o'z faoliyatida islohotchilik, el-yurtning dardutashvishlari eng oliy mezon bo'lib qolishini ochiq bayon qiladi¹. 25 iyun kuni esa, janjal-to'polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg'onaga yo'l oladi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahrg'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan ohu-nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi jarohatlarga malham qo'ygandek bo'ladi, ko'ngillarda so'ngan umid uchqunlarini uyg'otadi. Tartib-intizomni tiklash, qon to'kilishining oldini olish bo'yicha butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, aniq-chora-tadbirlar ko'radi.

Albatta, respublika rahbarlari sifatida Farg'ona voqealarining sabab va oqibatlarini haqidagi ma'lumotlar bilan o'z kabinetida o'tirib ham tanishishi, kerakli qarorlarni qabul qilishi mumkin edi. Ammo o'sha paytdagi aksariyat partiya arboblari xos bo'lgan bunday xonanishinlik, kabinetdan chiqmay ish yuritish printsipli unga mutlaqo begona edi. U hayotning qaynoq nafasini bevosita his qilish, yaxshi-yomon kunlarda xalq bilan birga bo'lish, el-yurtning darduvonchiga doimo sherik bo'lishni o'zining hayotiy maslagi, oliy insoniy burchi deb biladi².

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 8-бет.

² Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 9-бет.

O'lkamizdagi vaziyatni chinakamiga o'nglash, yurtdoshlarimizning hayotga qarashini, bugungi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlash uchun avvalo, ularning iqtisodiy, moddiy ahvolini yaxshilash zaruratini chuqur anglagan respublikamiz rahbari aholi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan juda katta bir masalani – odamlarga tomorqa er berish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

1989 yil 17 avgustda Islom Karimov boshchiligida respublika hukumatining Toshkentda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida aholiga tomorqa va shaxsiy uchastkalar ajratish masalasi muhokama qilinadi va “Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida” qaror qabul qilinadi. Ushbu tarixiy hujjatda qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan er ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi.

Bu boradagi amaliy ishlar natijasi 1989-1990 yillarda bir yarim milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha er ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa erlari berildi.

1989 yili Islom Karimovning tashabbusi bilan odamlarga juda katta miqdorda uzoq muddatli kredit-qarzlari berildi, uy-joy qurish uchun qurilish materiallari, aholining chorvasi uchun dag'al em-xashak ajratildi. 80-yillarning o'rtalarida yiliga 3 million kvadrat metr uy-joy qurilgan bo'lsa, 1989 yili yaratilgan qulay imkoniyatlar tufayli bu ko'rsatkich 4,9 million kvadrat metrni tashkil etdi. Yakka tartibda uy-joy quruvchilarga qarz berish uchun resurslarning umumiy hajmi 1989 yilga kelib bir yarim barobar kupaytirildi va 187 million so'mga etkazildi¹.

¹ Куддус Аъзам. Оғир синовлар даври. –Т.: Алишер Навоий номли Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2004. 14-бет.

2.3. Milliy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida, avvalambor, asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri milliy armiyani shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1990 yil 5 iyunda O'zbekiston Kompartiyasining XXII s'ezdida "O'tmishdan saboq chiqarib, kelajakka ishonch bilan" nomli ma'ruzasida "Biz armiya xizmatiga salbiy munosabatni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish uchun omilkorlik bilan

harakat qilishimiz shart”, degan edi¹. Bu o’rinda gap ayrim harbiy qismlarda intizomning bo’shashib ketgani, ustavga xilof munosabatlar mavjudligi, yigitlarning mayib bo’lib qaytishi va halok bo’lishiga yo’l qo’ymaslik haqida bormoqda. Biz ro’yirot aytishimiz kerakki, bunga aslo yo’l qo’ya olmaymiz. O’z farzandlarimizni ularga nisbatan noxush hatti-harakatlardan va belgilangan qonunlarning buzilishidan muhofaza qilish uchun barcha ishlarni qilamiz, deb ta’kidlaydi muallif.

So’ngra O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining tashabbusi bilan O’zbekiston SSR Oliy Soveti Ittifoq organlariga yigitlarimizning xizmatini o’tash tartibini o’zgartirish to’g’risida bir qancha takliflar kiritgani, bu masalalar hal etilayotgani, chunonchi qurilish qismlariga chaqirilgan yigitlar Turkiston harbiy okrugi xududida xizmatni o’tashlari to’g’risida masala hal etilgani haqida axborot berib, bu boradagi amaliy ishlarga to’xtaladi.²

Ana shunday chiqishlardan keyin bu sohadagi ahvol o’zgarib, chaqiruv komissiyalariga Oliy sovet va mahalliy sovetlarning deputatlari jalb etiladigan bo’ldi. O’zbekistondan chaqirilgan yigitlarning barcha jangovar qismlarda harbiy xizmatni o’tash shart-sharoitlari respublika jamoatchiligi tomonidan qat’iy nazorat ostiga olindi.

Milliy armiyamizni shakllantirish yo’lidagi dastlabki dadil harakatlar haqida so’z borganda biz uchun mardlik, azmu shijoat. Vatanga sadoqat timsoli bo’lgan buyuk Amir Temur bobomizning muborak nomini milliy qadriyatlarimiz ayovsiz toptalgan o’sha tahlikali davrda Yurtboshimiz jasorat bilan tilga olib, bu ulug’ zotga o’z hurmatini bildirganini eslashimiz, albatta, o’rinlidir. Quyidagi so’zlar bu jihatdan ayniqsa e’tiborlidir. **“Qaysi bir kitobda g’oyat ibratli rivoyatni o’qigan edim. Emishki, Amir Temur yarim jahonni zabt etib, olis o’rmon qabilalariga borib etibdi, xullas, ularni ham o’ziga bo’ysundiribdi. Qaysar va jangari, ozod va samimiy bu qabila boshlig’i chorasizlik tufayli, Temurga qurollarini**

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 220-221-бетлар.

² Ўша манба, 220-221-бетлар.

topshirar ekan, quyidagi gaplarni aytibdi: “Ey, Amir! Sen bizni qurol kuchi bilan eng a olding. Biroq senga aytadigan shartlarimiz bor. Agar sen qassob bo’lsang, bizni so’yib tashla, agar sen savdogar bo’lsang, sotib yubor, agar podsho bo’lib kelgan bo’lsang – bizga baxt ato et!”.

Bu rivoyatning sinfiy, tarixiy yo’nalishi ayni chog’da bizni qiziqtirayotgani yo’q. Bu hikoyatda ajoyib bir hikmat barq urib turibdi. Ya’ni elga peshvoman, deb o’rtaga chiqdingmi, unging ishonchini qozondingmi – bu ishonchni endi asl vijdon bilan, pokiza faoliyat bilan oqlamoq kerak bo’ladi. Bu talabni eskichasiga aytsami, yangichasigami – baribir, mohiyatini bir xil bo’lib qolaveradi. Ya’ni xalq vakili xalqning posboni, xalq rahbari bo’lib, xalqning issiq-sovug’idan xabardor bo’lg’uvchi sirdoshiga aylanishi shart”¹.

Tarixga munosabat masalasida kommunistik qarash, sinfiy yondashuv hali o’z ta’sirini yo’qotmagan bir sharoitda sovetlarning yuqori minbardan turib Sohibqiron bobomiz nomini tilga olish, yuritish rahbar odamdan chinakam jasorat, ayni paytda, ulkan tafakkur va donishmandlik fazilatlarini talab etishini anglash qiyin emas.

1990 yil 20 iyunda bo’lib o’tgan O’zbekiston SSR Oliy Sovetining 2-sessiyasida Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. U 12 bo’limdan iborat bo’lib, unda milliy armiyani shakllantirish bilan bog’liq bo’lgan ayrim bandlar quyidagilardan iborat edi:

1. O’zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o’z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O’zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi dahlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo’yilmay turib, o’zgartirilishi mumkin emas.

3. O’zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo’linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir va h.k.

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 127-бет.

1991 yil 25 avgustdagi O'zbekiston SSR Prezidentining Farmoniga ko'ra:

1. Respublika hududida joylashgan SSSR IIV va Davlat Xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi;

2. Respublika va uning fuqarolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilishni nazarda tutadi.

3. Respublika hududi joylashgan SSSR IIVning ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi¹.

4. O'zbekiston SSR IIV, DXQ, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan holi qilindi va h.k.

Prezidentning bevosita ko'rsatmasi bilan respublika IIVning mas'ul lavozimlariga malakali mahalliy kadrlar qo'yildi. Tizim rahbarligi xalq taqdiriga befarq bo'lmagan, uning orzu-armonlari bilan yashaydigan kishilar qo'lga o'tgach, ishda jiddiy ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Uyushgan jinoyatchilik, bosqinchilik, avtomashinalarni olib qochish singari o'nlab jinoyatlarning payi qirildi. Sobiq Ittifoq hududida avj olib ketgan avtomashina o'g'irligini oladigan bo'lsak, agar 1990-1991 yillarda bir kunda o'rtacha 154 jinoyat rasmiy ro'yxatga olingan bo'lsa, ayni masalada Prezidentimiz ko'rsatgan qat'iyat tufayli 1992 yilga kelib bir yilning ichida bunday bemazgarchiliklarga chek qo'yildi.

Bu tadbirlarning huquqiy asosi bo'lib esa 1990 yil 31 oktyabrda Prezident imzolagan "militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston SSRning Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25 oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining IIV to'g'risida"gi 270-sonli qarori xizmat qildi. Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi bilan IIV faoliyatiga doir eng muhim masalalar o'z echimini topdi. Ularda ichki ishlar xodimlarining asosiy vazifalari, huquq va burchlari aniq ko'rsatib berildi, ivtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish choralari belgilandi. Har bir mansabdor shaxsning huquq va mas'uliyati alohida ko'rsatilib, vazirlikning yangi

¹ Ўша манба, 370-371-бетлар.

strukturasi tasdiqlandi. Eng muhim – bu tizim faoliyatini moliyalash, xodimlarga unvonlar berish va lavozimlarga tayinlash respublika ixtiyoriga olindi. Shu tariqa yurtimiz ichki ishlar tizimi o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi.

1984-1989 yillarda “O'zbekiston sotsialistik qonunchilikni tiklash” shiori ostida respublika huquq-targ'ibot idoralarining barchasiga Markazdan minglab odamlar jo'natildi. Bu idoralar orasida shaxsiy tarkibi, harakatlanish hududi va ta'sir kuchi nuqtai nazaridan eng yirigi hisoblangan. O'zbekiston SSR IIVga sobiq Sovetlar mamlakatidan hamma bo'lib 150 ta xodim keldi. Yillar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 1984 yilda 5 ta, 1985 yilda 33 ta, 1986 yilda 86 ta, 1987 yilda 27 ta, 1988 yilda 2 ta, 1989 yilda 3 ta “osoyishtalik posboni”, birovdan so'rab-so'ramay, O'zbekistonga “tashrif buyurgan”. Bu “kutilmagan mehmonlar”ning asosiy maqsadi – sotsialistik qonunchilikni ta'minlash emas, balki o'zbek xalqini taxqirlash evaziga xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish edi¹.

O'zbekiston SSR IIV tarkibida ishlagan shovinistik kayfiyatdagi bu kishilar o'zlari kabi prokuratura va sud tizimiga tushirilgan “desantchi”lar bilan til biriktirib, bir xil siyosat yuritishgan. Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi “desant” amalga oshirilgan qonxo'r tergovlar qancha-qancha insonlar, butun-butun oilalar boshiga cheksiz xo'rlik, kulfatlar keltirgan edi.

Islom Karimovning 1990 yil 5 iyunda O'zbekiston Kompartiyasining XXII s'ezdida “O'tmishdan saboq chiqarib, kelajakka ishonch bilan” degan mavzudagi ma'ruzasida quyidagi muhim holat va vazifalar qaytd etildi:

1. O'tmishning asosiy saboqlari.
2. Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
3. Ma'naviy siyosiy vaziyat va uni barqaror qilish choralari.
4. Samarali mustaqil iqtisodiyot uchun kurashish.
5. O'zbekiston SSR siyosiy suverenitetini ta'minlash.
6. Jamiyatning ma'naviy va axloqiy sog'lomligi uchun javobgarlik.

¹ Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 152-153-бетлар.

“Mustaqillik davrida yosh davlatimiz, unga qudratbaxsh etuvchi zaxmatkash xalqimiz davlat va jamiyat qurilishining turli jabhalarida beqiyos yutuqlarni qo’lga kiritganini g’urur bilan ta’kidlab o’tish mumkin. Dunyo xaritasida yangi, o’z ovozigacha, o’z o’rniga ega bo’lgan mustaqil O’zbekiston davlatining paydo bo’lganini hozir hech kim, hatto g’animlarimiz ham inkor eta olmaydi. O’tgan davr ichida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarda erishgan yutuqlarimizning eng birinchi, eng asosiy omili bu mamlakatimizda o’rnatilgan tinchlik-xotirjamlik, millatlararo totuvlik, mamlakat xavfsizligini saqlash borasidagi chora-tadbirlar bo’ldi, deb ishonch bilan ayta olamiz. Chunki faqat tinchlik bo’lgan mamlakatdagina siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligini tarix ham, o’tgan kunlari ham isbotlab qilib turadi. Ammo mustaqillikning asl mohiyatini tushunish, uning qadriga etish uchun hozirgi kunda faqat yutuqlarimiz to’g’risida gapirish kifoya qilmaydi. Mustaqillikka qonsiz, qurbonlarsiz erishgan bo’lsak-da, aytish joizki, mustaqillikning yuki og’ir. Bu yukni ko’tara olish, mustaqillikni saqlab qolish naqadar og’irligini qo’shnilarimizning taqdiri isbot etib turibdi. O’zingiz o’ylab ko’ring, sarxatlari va xavfsizligini himoya qilishda boshqa davlat qurolli kuchlariga muhtoj mamlakatlarning to’la mustaqilligi haqida gapirish mumkinmi?

O’zbekistonni o’z ta’sir doirasiga kiritishni istagan va buning uchun barcha nayranglarni, qolaversa, harbiy kuchni ham ishlatishga tayyor bo’lgan kuchlar qurshovida Vatanimizning mustaqilligini saqlash uchun behisob qiyinchilik va iztiroblarni boshdan kechirishga to’g’ri keldi. Ayniqsa, hozirgi kunlarda butun jahondagi eng tahlikali mintaqalardan biri bo’lgan bizning mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash uchun qanchalik oqilona siyosat yurgizish kerakligini, sabot va matonat zarurligini hayotning o’zi isbot etayapti”.

“Mustaqil bo’lsang – mustaqil bo’l! Davlat bo’lsang – davlat bo’l!” Prezidentimiz aytgan bu so’zlar uning mamlakatimiz taqdiri, kelajagi haqidagi tashvishli o’ylarning qisqa va ma’nodor ifodasi bo’ldi, desak yanglishmaymiz. Bu borada mustaqillikni e’lon qilish bilan kifoyalanib bo’lmasligi, uni saqlay bilish,

buning uchun esa o'z xalqini ichki va tashqi dushmanlardan himoya qila olish, uning tinch-totuv yashashiga imkoniyat yaratish, o'z sarhatlarini himoya qilish, mudofaa qudratini ta'minlash zarur ekani haqidagi fikr mujassam.

Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida bo'lib o'tgan xalqaro anjumanlarning birida Amerikalik siyosatshunos olim Gleb Xovard O'rta Osiyo davlatlarining ichida faqat O'zbekistongina o'zining chegaralarini turli ekstremistik xurujlardan himoya qilishga qodir bo'lgan yagona davlat ekanini ta'kidladi. Aslida, uning so'zlari turli davlat rahbarlari va siyosatshunoslari kelgan umumiy bir xulosaning xolis ifodasi hamdir.

Prezidentimizning uzoqni ko'zlab, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab mudofaa masalalariga katta ahamiyat bergani sabablarini va bu aslida hozirgi kundagi mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligining garovi bo'lganini tushunib etish qiyin emas. O'sha vaqtlarda mustaqillikka erishgan qo'shni davlatlar o'z yigitlarini harbiy xizmatga chaqirsa-da, ularning harbiy xizmatni o'tashi uchun tayyor garnizon, qurol-aslaha, harbiy texnikasi yo'qligi, hattoki askarlar oddiy yotoq bilan ta'minlanmaganligi sababli harbiy biletlarga go'yoki xizmatda deb muhr bosib, bir ikki oy uyda ko'rinmaslik sharti bilan qo'yib yuborilgani ma'lum. Bundan tashqari, qo'shnilarimiz sho'rolar davridan qolgan texnika va qurol-yaroqlarni bir kunlik foydani o'ylab arzon baholarga xorijiy mamlakatlarga yoki turli firmayu kompaniyalarga sotib yuborib, tang ahvolda qolgani ekstremistik guruhlarining hurujlari paytida yaqqol sezilib qoldi. Buning aksi o'laroq, bizning yurtimizda mahalliy harbiy qadrlarni tayyorlash masalasi doimo Yurtboshimizning diqqat markazidagi ustuvor masala bo'lib kelmoqda. Prezident tashabbusi bilan Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Urganch shaharlarida harbiy mutaxassislarga tayyorlaydigan litseylar tashkil etildi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Toshkent umumqo'shin komandirligi, Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar, Chirchiq tankchi komandir-muhandislar, Jizzax havo kuchlari (aviatsiya) oliy harbiy bilim yurtlari, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakulteti 28 yo'nalishdagi harbiy

mutaxassislik bo'yicha malakali zobit kadrlar tayyorlab kelmoqda. 1990 yilda mahalliy zobitlar harbiy kadrlarning bor-yo'g'i 0,6 foizini tashkil qilgan bo'lsa, hozirda ularning soni 80 foizga etgani shu borada amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarning mevasidir.

Tarixan qisqa davrda bunday ulkan natijalarga erishish oson kechmadi, albatta. Bunga ishonch hosil qilish uchun bundan 20-22 yil avvalgi vaziyatni eslab o'taylik. XX asrning 80-yillarining oxiri 90-yillarning boshlarida hali Sovet Ittifoqi mavjud bo'lgan va Markazda qanday bo'lmasin Ittifoqni saqlab qolishga harakat ketayotgan bir vaqtda buning eng kuchli vositalaridan biri sho'ro harbiy kuchlari hisoblanar edi. O'sha davrlarda Ittifoq bo'yicha eng ko'p harbiyga chaqiriladigan yigitlar ayni bizning O'zbekistonda bo'lgani ko'pchilikka ma'lum. Har yili 320 ming nafarga yaqin yigitlarimiz sho'ro qurolli kuchlariga xizmatga chaqirilar edi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, o'sha davrlarda o'zbek yigitlari nafaqat hayotning boshqa jabhalarida, balki qurolli kuchlar safida ham kamsitilar edi. Ya'ni yigitlarimizning aksariyat qismi harbiy xizmatga chaqirilish bahonasida qurilish batalonlariga jalb etilardi. Ular ikki yil davomida harbiy texnikani ko'rmay, qurolni bir marta bo'lsa-da qo'lida tutmay, mardikorlik bilan shug'ullanib qaytar edi.

Bu siyosat aslida Birinchi jahon urushi davridagi chor Rossiyasi qo'llagan mardikor olish siyosatini davomi edi. Chor Rossiyasi faqat urush vaqtida mardikorlikka safarbar etgan bo'lsa-da, sho'rolar davlati tinch davrda ham harbiy xizmat bahonasida yigitlarimizdan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanib keldi. Bunday siyosatni oqlash maqsadida Markazdagilar asossiz bahonalarni ro'kach qilar edi. Masalan, yuridik fanlari doktori Galina Litvinovaning matbuot orqali o'zbeklarni harbiy-tarixiy tajribaga ega bo'lmagan millat, deb baholashining o'zi bizga bo'lgan munosabatning ro'y-rost, oshkora ko'rinishi emasmi?! Vaholangki, Afg'onistondagi urushga safarbar qilingan askarlarning ko'pchiligini o'zbek yigitlari tashkil etgan. Demak, urush davrida o'zbeklar harbiy xizmatga loyiq edi-

yu, tinch davrda faqat mardikorlikka yaroqli bo'libdi-da? Bu ham sho'rolar shovinistik siyosatining ko'rinishlaridan biri edi¹.

Taniqli olim A.Azizxo'jaev o'zining "Chin o'zbek ishi" asarida ta'kidlab o'tganidek, "Afg'on urushi davrida eng ko'p temir tobutlar O'zbekistonga kelgan edi. Urush, tabiiyki, qurbonsiz bo'lmaydi. Lekin, achinarlisi shundaki, afg'on urushi tamom bo'lsa-da, tinch davrda ham O'zbekistonga kelayotgan temir tobutlarni oqimi to'xtamadi. Faqat 1989 yilning o'zida O'zbekistonga 430 ta tobutni kelgani fikrimizning dalilidir. 1990 yillarda ham bu dahshatli jarayon davom etdi. Bu haqda yozuvchimiz O'tkir Hoshimov KPSS s'ezdining (1990 yil iyunda) minbardan turib, so'nggi yarim yilning o'zida 300 ga yaqin o'zbek xonadoniga harbiydan tobutlar kelganini oshkora aytganida, uning gaplari bo'htonga chiqarilgan edi. Buni isbotlash maqsadida tuzilgan maxsus komissiya "masalani o'rganib", O'zbekiston vakilining 40 kishiga ayta oldi, xolos. Mayli, shunday ham bo'lsin. Ammo o'ylab ko'ring, tinch davrda 300 ga yaqin o'zbek xonadoni "o'g'lim er yigit bo'ldi", deb endi kuchga to'lgan, orzu- umidlari bisyor o'g'lonlarini orzu- havas bilan harbiyga yuborib, ko'p o'tmay ularning jasadini olgani o'sha davrning eng dahshatli haqiqati emasmi?.. Hatto, Kosovo urushida ham qurbonlarning soni bunchalik ko'p bo'lmagan edi.

Ustiga- ustak, o'zlarini "demokratiya himoyachilari" deb atagan "Erk" va "Birlik"dagi dohiychalar qurbonlardan soxta obro' orttirish yo'lida foydalanib, ularni musulmon odatlariga binoan tezda qabrga qo'yish o'rniga ko'chama- ko'cha ko'tarib, odamlarni xayrsiz kurashga chorlagani dard ustiga chipqon bo'ldi... G'arazli maqsadlarda har qanday fitna va nayranglardan tap tortmaydigan bunday kimsalar uchun begunoh qonlarning to'kilishi arziyas narsa edi. Hali Ittifoq tarqalib ulgurmagan bu tahlikali davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qat'iyat bilan masalani qon to'kmasdan, tinchilik bilan hal qilish yo'lini tutdi".²

Mustaqillik yillarida Prezidentimizning har tomonlama chuqur o'ylagan siyosati bois mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz

¹ Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 152-155-бетлар

² Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 155-156-бетлар.

daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir, ixcham, tezkor, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlangan milliy armiyamiz shakllandi. Qurolli kuchlarni boshqarishning yangi tizimi yaratildi, qo'shinlarning tuzilish va jangovar tarkibi, tashkiliy-shtat qurilishi tubdan o'zgardi. Ofitser va serjant kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy talablarga javob beradigan tizimi vujudga keldi. Shuningdek, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni tayyorlash tizimi tubdan o'zgarmoqda. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Islom Karimovning O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 19 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida ko'rsatib o'tilganidek, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligiga rahna soladigan har qanday hatti-harakatlar qarshi Qurolli Kuchlarimizning munosib va samarali zarba berish imkoniyati hamda tayyorgarligini tanqidiy baholab borish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, boshqaruvning informatsion vositalari va harbiy aloqa tizimlarini uyg'unlashtirish, jangovar tayyorgarlikni mustahkamlash, harbiy qism va bo'linmalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika, aloqa va individual himoya vositalari bilan ta'minlash, professional harbiylarni shakllantirishni ta'minlaydigan uzluksiz tizimni yanada takomillashtirish kabi chora-tadbirlar Vatanimiz mustaqilligini himoya qilish, musaffo osmonimizni asrab-avaylashning ishonchli kafolati bo'lib xizmat qiladi.

III-BOB. IJTIMOIIY-SIIYOSIIY HAYOTNI ERKINLASH TIRISH MASALALARI

3.1. Mustabid tuzum inqirozining sabablari va ularni bartaraf etish xususiyatlari

Mamlakatimizda so'nggi 25 yil ichida erishgan yutuq va marralarimizni xolis va munosib baholash uchun mustaqillik ostonasida ijtimoiy-siyosiy hayot qanday murakkab vaziyatda bo'lganini, bu vaziyatni tubdan yangilangan yo'nalishga burib yuborish uchun ulkan donishmandlik va jasorat, insoniylik va ezgulik tamoyillariga yo'g'rilgan, ko'pchilikka ibrat va namuna bo'ladigan vazmin siyosat talab etilganini esga olishimiz va o'zimizga aniq tasavvur etishimiz muhimdir. Mustaqillika arafasida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning yanada fojiali tus olishi, qaror topgan xo'jalik, ishlab chiqarish va moliyaviy aloqalarning butunlay izdan chiqib ketishiga barham berish, ishsizlikning avj olishiga yo'l qo'ymaslik favqulodda muhim zaruratga aylangan edi.

Mazkur va boshqa eng muhim muammolarning negizi, omillari, mohiyati, shuningdek, ularga barham berish borasidagi aniq va istiqbolli yondashuvlarni ishlab chiqish mas'uliyati Respublikamiz Prezidenti I.Karimov zimmasiga tushdi va bu o'ta murakkab vazifa samarali hal etildi¹.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, 1989-1991 yillarda: "... markazlashtirilgan rejalashtirish va taqsimlash mexanizmi asosida faoliyat ko'rsatgan butun sovet tizimiga xos bo'lgan illatlar bilan bir qatorda, respublikamiz iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanib, faqat xom ashyo etkazib berishga yo'naltirilgani, iqtisodiyot, ekologiya va aholi genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatgan to'la va mutlaq paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan edi. Buning oqibatida, ulkan tabiiy, mineral xom ashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji buyicha oxirgi o'rinlardan birida turar edi.."² Aslida mamlakatimiz salohiyatida juda keng imkoniyatlar mavjudligini hayot tajribasi tasdiqlagan edi.

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011 йил, 440-бет.

² Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий- ижтимоий тараққиётнинг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган пргнозлари:- Т: “Ўзбекистон” НМИУ. 2011.4-бет

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmasligi kabi o'tkir muammolar yig'ilgan va nihoyat keng tus olgan edi. Ya'ni, yig'ilgan murakkab muammolar xalqasi o'zaro bir-birini taqozo etar va ijtimoiy muhitda ziddiyatlar kuchayishiga olib kelar edi. Masalan, hukmron repressiv Sovet davlatining siyosati jamiyatda mustabid mafkura kuchining saqlanishiga xizmat qilgan. Bu bilan xalqqa homiylik qilish emas, odamlar orasida mutlaq itoatgo'ylikka asoslangan qo'rquv va vahima keng tarqalgan natijada ertangi kunga ishonchsizlik sharoitining ortishi ichki norizolikni kuchaytirgan. Keng miqyosdagi repressiv siyosat oqibatida yurtimizda ozgina uchqundan olov lovillab yonib ketadigan o'ta qaltis vaziyat yuzaga kelgan edi.

Yurtimizdagi mavjud ahvol sobiq Ittifoqdagi o'rtacha darajaga nisbatan og'ir va ayanchli ijtimoiy manzarada ham o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, 1989 yilning may oyida Farg'ona viloyatida buzg'unchi kuchlar tomonidan ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelgani vaziyatni battar chigallashtiradi. 1989 yilning iyuniga kelib ommaviy tartibsizliklar nihoyatda avj oldi. Shunday tahlikali sharoitda – 1989 yil 29 iyun kuni respublikamiz etakchisi janjal-to'polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg'onada lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahri-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi va keng tafakkur, mustahkam iroda va e'tiqod sohibi sifatida achchiq haqiqatni ko'ziga tik qaraydi va el yurtning barcha dardu tashvishlari haqida ochiq gapiradi.

Mustabid tuzum muammolari tarkibida: hukmron kommunistik mafkura davlati kuchining saqlanishi: keng tarqalgan qo'rquv va vahima "paxta ishi" degan tuhmat bilan tazyiq, ta'qib, nohaq qamalishlar; xalq kayfiyatidagi tushkunlik; bir millionga yaqin ishsizlikning mavjudligi; aholi 45 foizi (9 million kishi) –ning daromadi kun kechirish uchun zarur bo'lgan eng past darajadan (jon boshiga oyiga 75 so'm) ham pastligi; ijtimoiy infratuzilma muassasalari – maktab va kasalxona binolari 60 foizining noboblighi; yurtimizda 1700 ta maktab avariya holatida ekani;

qurilayotgan maktablar soni esa aholining ko'payish suratini arang qondirishi; soliqni saqlash sohasi, kasalliklar, bolalar o'limining o'ta ayanchli ahvoli; odamlarning oddiy ichimlik suvi bilan ta'minlanmagani; Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida yashayotgan 4 millionga yaqin aholi ahvolidan nihoyatda mushkulligi; Orol muammosidan O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining bezovta, besaranjomligi; xomashyo etkazib berishga asoslangan bir yoqlama iqtisodiyotning qaror topgani; ertangi kunga ishonchsizlikning ortishi va ozgina uchqun chiqsa lovillab yonib ketishi mumkin bo'lgan vaziyatni ko'rsatadigan o'ta jiddiy misollarni keltirish mumkin.

Murakkab muammolar girdobidagi ijtimoiy – siyosiy hayotni isloh qilish o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid tuzumdan voz kechish; jahon tajribasini har tomonlama puxta o'rganish; umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash; milliy urf-odat va an'analarimizni asrab- avaylash va yanada mustahkamlash maqsadida mavjud muammolarning kelib chiqish va rivojlanish sabablarini bartaraf etishni talab etar edi.

Og'ir vaziyatda mavjud ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha asosli kontseptual yondashuvlar va amaliy fikr- mulohazalar talab etilardi. Shu bois dastlab butun e'tibor O'zbekistonning ijtimoiy- siyosiy taqdiri va kelajagini hal etishga qaratildi. Bunda yurtboshimizning barcha fikr-mulohazalari ozodlikka erishish va hurriyatning yorug' istiqbollari bo'yicha yondashuvlar ishlab chiqishga yo'naltirilgani to'liq anglanadi.

I.A.Karimov faoliyatidagi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat edi:

- 1) mavjud ayachli ahvolni tuzatish bo'yicha Markaz rahbariyati oldiga qat'iy talablarni printsiptal tarzda qayta- qayta qo'yishdan cho'chimaslik;
- 2) qanchalik og'ir va noxush bo'lmasin, ochiq gapirish;
- 3) hamisha haqiqatning ko'ziga tik qarash;
- 4) yurakdan chiqqan samimiylik;
- 5) uzoq vaqtlar gazak oldirilgan nuqsonlarning ildizini ochish;

6) xalqimizni badnom qilishga urungan yovuz kuchlarga qarshi qat'iy kurash olib borish;

7) keng tafakkur, mustahkam iroda va e'tiqod;

8) odamlarning qalb jarohatlariga amaliy ishlar bilan malham qo'yish;

9) azmu shijoatlilik, mardlik va donishmandlik;

10) tartib-intizomni tiklash bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

11) azob-uqubat va qon to'kilishga sabab bo'ladigan boshboshdoqlik, hokimiyatsizlik va adovat bo'lishga yo'l qo'ymaslik;

12) fojea oqibatlarinin bartaraf etishning aniq amaliy echimlarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish;

13) ko'ngillarda so'ngan umid uchqunlarini uyg'otish;

14) xalqning tuhmat va malomatlardan egilgan ruhini ko'tarish;

15) el-yurtimiz dardiga darmon bo'lish;

16) barcha sog'lom kuchlar hamkorligiga tayanib xalqni jipsldashtirish, uning bunyodkorlik kuch-g'ayratini ro'yobga chiqarish;

17) qonunga, adolatning kuchiga tayanish;

18) tinchlik va osoyishtalikni eng katta boylik deb bilish;

19) islohotlardagi tadrijiylik va bosqichma-bosqichlik;

20) inson manfaatlarini har qanday sharoitda ham birinchi o'ringa qo'yish.

Islom Karimov o'z faoliyatida uzoq vaqtlar davomida echilmasdan, gazak oldirilgan kamchilik va nuqsonlar, o'tkir ijtimoiy muammolarning ildizini ochish bilan bir qatorda ijtimoiy hayotni isloh etishning puxta o'ylangan yo'llarini asoslab bergani, respublikamizni og'ir inqirozdan chiqarish va dadillik bilan istiqlol sari boshlashda ulkan muhim ahamiyat kasb etdi. Yurtboshimiz, ayniqsa, xalqning ijtimoiy himoyasi, jamiyatda sotsial adolat saqlanishiga o'z faoliyatining birinchi kunlaridan boshlab katta ahamiyat beradi. Bunda avvalo katalakdek hovlilarda yashayotgan ming-minglab insonlarning o'tkir muammolari hal etildi – ularga uy-joy uchun tomorqa berildi. Yurtimizdagi 10 millionga yaqin qashshoqlik holatida yashayotgan odamlarning ijtimoiy-ahvolini yaxshilash masalasi kun tartibiga

qo'yildi. Yolg'iz keksalar, nogironlar, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish tizimi shakllana boshladi. O'qituvchilar, shifokorlar mehnatini qadrlash, maktab o'quvchilarini issiq ovqat bilan ta'minlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida amaliy qadamlar qo'yildi. Bularning barchasi hozirgi kunda mamlakatimizda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan kuchli ijtimoiy tizimning dastlabki asoslari ana shu dolg'ali yillarda – mustaqillik arafasida qo'yilganini ko'rsatadi.

1989-1991 yillarda yurtimiz tinchligi, xalqimiz omonligi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida ulkan ishlar yurtboshimizning buyuk tarixiy xizmatlaridan biri hisoblanadi.

O'sha paytda siyosiy muholiflarning mamlakatimiz etakchisiga nisbatan shoshma-shosharlik bilan bildirgan ta'na va dashnomlari, g'arazli hatti-harakatlariga siyosiy vazminlik bilan munosabat bildirildi. Islom Karimov bu haqda alohida fikrlarni ta'kidlab o'tgan edi: “Men faqat bir narsani – xalqlarning boshiga azob-uqubat keltiradigan va qon to'kilishiga sabab bo'ladigan boshboshdoqlik, hokimiyatsizlik va adovat bo'lishini istamayman. Demokratiyani hamma narsani qilish mumkin deb, o'zboshimchalik bilan talqin etish ana shunga olib keladi. Men demokratik jamiyatni, eng avvalo qonunga quloq solish deb bilaman”.

Shu o'rinda jahon adabiyoti xazinasiga o'zining noyob asarlari bilan betakror hissa qo'shgan atoqli adib, jamoat arbobi Chingiz aytmatovning mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov haqidagi fikrlarni keltirish o'rinlidir.

“O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bilan men ilk bor 1990 yilda uchrashganman. O'sh fojealari esingdami? Ikki qardosh xalq o'rtasida kutilmaganda nifoq paydo bo'lishi, qon to'kilishiga men befarq qarab turolmadim. Sessiya paytidayoq Gorbachev bilan uchrashdim-da: “O'shga borishimga ruxsat bersangiz. Men u erga borishim kerak. Nima bo'layotganini ko'rib, qo'limdan kelgancha odamlarga yordam beraman” dedim. Gorbachev shu zahoti KGB raisi Kryuchkovni, mudofaa vaziri Yazovni chaqirib: “Darhol maxsus samolyot

hozirlansin!” deb buyruq berdi. O’sha kuniyoq Chikalov nomidagi aerodromdan bir guruh o’rtoqlar bilan harbiy samolyotda uchib ketdim. Toshkentga qo’nishimiz bilanoq men O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi Odil Yoqubov bilan telefonda bog’landim. Biz uchrashdik. Tayyoragohning o’zida shoshilinch kengash o’tkazdik.

Vaziyat kunday ravshan edi: ikki qardosh xalq bir-birining yoqasiga yopishib turishardi. Qarama-qarshilikni qanday qilib bartaraf etish mumkin? Kutilmaganda alanga olib ketgan nizoni qanday yo’sinda to’xtatib bo’ladi? Bizni ana shunday muammolar qiynar edi. Har bir soatda yangi xabar etib kelardi, yurak-bag’rimiz o’rtanib, amaliy harakatga shoshilar edik.

“Farg’ona vodiysidagi o’n minglab o’zbeklar O’sh tomonga borishayapti!”

“Kechagi kundan e’tiboran Oloy qirg’izlari otlariga mindilar!”

Shunda men O’zbekistondagi har xil jamoat tashkilotlarining rahbariga: “Kelinglar, og’a- inilar, seniki noto’g’ri, meniki to’g’ri degan munozarani bas qilaylik. Rostini aytsak, hammamiz aybdormiz. Vaziyatni keskinlashtirishdan foyda yo’q”, dedim. Barcha mening fikrlarimni bir ovozdan qo’llab- quvvatladi.

Tez orada mening kelganimdan xabar topgan O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo’mitasining birinchi kotibi Islom Karimov aeroportga etib keldi. Har doimgidek muayyan bir masalaga butun diqqat-e’tiborini jamlagan, haraktchan, g’ayratli edi. Yakkama-yakka chin dildan gaplashdik. Men: “O’shga kirmoqchi bo’layotgan farg’onaliklarni to’xtating,- deb iltimos qildim.- agar ikki olomon bir-biri bilan to’qnashib ketsa, keyin ularni to’xtatish ham, tinchitish ham qiyin bo’ladi. Juda katta xunrezlik ro’y berishi hech gap emas. Biz ham O’sh viloyatini tinchitish uchun qo’limizdan kelgancha harakat qilamiz”.

Karimov bilan gapimiz bir joydan chiqdi. U mening fikr- mulohazalarimizni batamom qo’llab- quvvatladi va samolyot zinapoyasiga qadar kuzatib qo’ydi.

O’sh viloyatiga borib shart- sharoitlar bilan tanishganimdan so’ng men respublika televideniesi orqali O’zbekiston xalqiga murojaat qildim. Bu hodisa nimadan boshlangani, agar nizo kuchayib boradigan bo’lsa, oxiri juda yomon

bo'lishi mumkinligi to'g'risida dilimdagi bor gaplarimni ochiq- oydin aytdim. O'sha paytda mening yonimda Odil Yoqubov bilan Pirimqul Qodirov ham o'tirgan edilar. Ular ham mening fikrlarimni quvvatlashib, butun o'zbek xalqini bosiqlikka chaqirdilar.

Qadimdan qon-qardosh bo'lgan ikki xalq o'rtasida paydo bo'lgan nifoqni bartaraf etish borasida o'shanda Islom Karimov ulkan davlat arbobiga munosib bo'lgan aql-idrok, donolik namunasini ko'rsatdi.

Qozog'istonning PEN – klubi navbatdagi majlislardan birini Kustanayda o'tkazdi. PEN – klub prezidenti Abdujamil Nurpeisovning taklifiga ko'ra, men ham o'sha majlisda qatnashdim. O'zim yaqinda Frankfurtdan qaytgandim. Xullas, uyga qaytayotib, yo'l-yo'lakay Toshkentga ham tushib o'tdim. Oqshom chog'i Islom Karimov kaminani yo'qlab keldi. Biz Markaziy Osiyo madaniyatining hozirgi ahvoli to'g'risida juda uzoq suhbatlashdik.

Ilgari men bu kishini faqat xo'jalik ishlarining miridan-sirigacha yaxshi biladigan tajribali siyosatchi sifatida bilardim. O'sha oqshomdagi suhbatdan so'ng amin bo'ldimki, bu zot o'z xalqining, o'z davlatining tarixni teran biladigan, madaniyat va san'atning turli tarmoqlari bo'yicha chuqur tasavvurga ega bo'lgan tom ma'nodagi davlat arbobi ekan"¹.

¹ Айтматов Ч., Шохонов М. Қояда қолган кўз ёшлар. / Ҳокимият ва маънавият ёки подшоҳлар, хонлар, кироғлар, президентлар фаолиятига бир назар. – “Жаҳон адабиёти” журнали, 1997 йил, № 1. 7-56-бетлар.

3.2. Mustabid mafkuraga qarshi ochiq oshkora kurash

Prezidentimiz I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobining yana bir muhim ahamiyatli jihati shundaki, unda 80-yillar oxiri. 90-yillar boshlarida O‘zbekistondagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy ahvol chuqur tahlil etilib, mavjud muammolar bilan birga bu borada qilinishi lozim bo‘lgan ishlar mantiqiy izchillikda aks ettirilgan. O‘sha murakkab bir davrda respublika rahbari jamiyat hayotiga kompleks yondashib, boshqa o‘tkir masalalar singari sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilm-fan, madaniyatning muhim sohasidagi muammolariga ham alohida e’tibor qaratgan, ularni samarali hal etish uchun dolzarb g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlagani uning uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati, bilimi, metindek irodasi va jasurligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, bu davrda oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa hayotiy muhim tovarlarning taqchilligi odatiy holga aylanib, aholini ular bilan ta’minlash muammolari keskinlashgan edi. Orol dengizining falokati Qoraqalpog‘iston janubi uchun borib turgan ekologik kulfat bo‘lib, endi Orolni qutqarib qolish uchun zudlik bilan favqulodda chora-tadbirlar ko‘rish talab etiladi.

Buning ustiga, viloyatlarda, ayniqsa qishloqlarda sog‘liqni saqlash ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilgan edi. Bu borada davlatimiz rahbari “Samarqand oblast ijroiya komitetining kasalxona va poliklenikalar qurilishiga munosabatini odamlar

sihat-salomatligiga sovuqqonlik va mas'uliyatsizlarcha munosabatining yorqin misoli desa bo'ladi. Bu viloyat kasalxona va poliklinikalar bilan ta'minlanish bo'yicha eng so'nggi o'rinda turishiga qaramay, oblast rahbarlari ana shu maqsadlar uchun ajratilgan 10 million so'm pulning o'zlashtirilishini barbod etishdi.

Xolbuki, ana shu mablag'lar evaziga 900 bemorga mo'ljallangan kasalxona qurish mumkin edi. Xuddi ana shu oblastda bolalar o'limi juda ko'p bo'lishiga qaramay, 1979 yildan bo'yon har xil dardga chalingan bolalar davolanadigan kasalxona qurilishi nihoyasiga etmay qoldi".

Qoraqalpog'iston ASSR, Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo oblastlari va boshqa oblastlardagi ish ham talabga javob bermasligini yurtboshimiz ochiq bayon qiladi.

Shuningdek, rahbarimiz bu boradagi vazifalar xususida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "E'tiborni ijtimoiy masalalarga qaratish haqida gapirar ekanmiz, sog'liqni saqlashni yaxshilash birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Bu tarmoq moddiy bazasining nihoyatda qashshoq ekanligi ustiga, bizda bu soha yaxshi tashkil etilmagan va samarali foydalanilmayotir. Millatning zurriyot fondini, hech mubolag'asiz aytilish mumkinki, halokatdan saqlab qolish uchun keng ko'lamdagi tadbirlarning katta kompleksini amalga oshirish kerak bo'ladi. Muammo alla qachon viloyatlar doirasidan chiqib, umumdavlat vazifasi darajasiga ko'tarildi. Ammo bu sohadagi ko'pchilik rahbarlarning tashvishlanayotganliklari uncha sezilmayotir. Har holda, sog'liqni saqlash vazirligidan ham, hukumatdan ham hozirgacha e'tiborga sazovor bo'lgan asosli takliflar tushayotgani yo'q.

Mahalliy va respublika darajasida tibbiy muassasalarni tashkil etishning puxta va to'laqonli sistemasini ishlab chiqish, sharoitimizni hisobga olgan holda, ilg'or chet el tajribasidan fodalanishimiz kerak.

Ixtisoslashgan yirik davolash markazlari qishloq va shahar kasalxonalari keng shahobchalari bilan qo'shilib, ana shunday sistemaning asosiy bo'g'iniga

aylanishi kerak. Respublikada bunday sistemani vujudga keltirishga asos solindi. Yaqin yillarda kardiologiya markazini, ko'z mikroxirurgiyasi mintaqaviy markazini, onalik va bolalikni muhofaza qilish markazini, urologiya markazi va shu singarilarni yaratish mo'ljallangan.

Shu bilan bir qatorda rayonlar, shaharlar, yirik posyolkalarda keng sohali kasalxonalar, poliklinikalar, feldsherlik, akusherlik punktlari, tug'riqxonalarining keng shahobchalarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, joylarda uchatka kasalxonalarini qayta tiklash kerak.

Biz sog'liqni saqlashga mablag' manbalarini izlab topishga yangicha yondashmog'imiz zarur. Sog'liqni saqlashni tashkil etishni sug'urta shakllari singari manbalari haqida ham jiddiy o'ylab ko'rish lozim. Bir narsa ravshanki, sog'liqni saqlash faqat byudjet mablag'lari hisobiga rivojlana olmaydi. Sog'liqni saqlashni rivojlantirishni fondini tashkil etish, unga katta foyda olayotgan korxonalar, xo'jaliklar, kooperativlar, jamoat tashkilotlaridan pul o'tkazish masalasini tezda hal etish g'oyat muhimdir.

Yana bir muhim masala. Oila vrachi vazifasini qayta tiklash kerak. Bu haqda ko'pdan beri gapirib kelinmoqda. Lekin ko'zga ko'rinarli siljishlar yo'q. Bu masalani hal etish, bunday vrachlar tayyorlashni tashkil etish va ularga ish sharoitini yaratish" payti kelganligi ta'kidlanadi¹.

Aynan o'sha davrlarda Yurtboshimizning aholi salomatligini yaxshilash borasidagi tinimsiz izlanishlari, ko'rgan chora-tadbirlari natijasida 300 ming bemorga mo'ljallangan kasalxonalar, har smenada 8000 betob bemorni qabul qilishga mo'ljallangan poliklinikalar rejaga qo'shimcha tarzda foydalanishga topshirilgan edi.

Bu ishlar yirik tadbirlarning boshlanishi edi. Ular istiqloq yillarida sohada erishilgan ulkan yutuqlarimizning poydevori bo'ladi, desak, mubolag'a bo'lmas.

Ma'lumki, xo'jalik organizmiga mustabid tuzum davrida o'rnashib qolgan illatlar O'zbekiston iqtisodiyotiga ham jiddiy zarar etkazar edi. Yo'l qo'yilgan

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 205-206-бетлар.

qo'pol xatolar, nuqsonlar, madaniy xo'jalik yuritish printsiplarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi natijasida iqtisodiyotning eng muhim yo'nalishlari barbod bo'la boshladi.

80-yillarning o'rtalarida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha respublika Ittifoqida oxirgi o'rinlardan biriga tushib qolgan edi. Aholi jon boshiga milliy daromad O'zbekistonda o'rtacha Ittifoq darajasiga qaraganda ikki barobar kam edi. Yurtimiz aholisining mamlakatdagi boshqa mintaqalarga nisbatan moddiy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlanish darajasidagi farq g'oyat ortib ketgan edi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning mustamlakachilik rejasiga ko'ra respublika iqtisodiyoti faqat bir tomonlama, "xom-ashyo" yo'nalishida rivojlanishi oldindan belgilab qo'yilgan edi. Natijada respublikada sanoatning xom ashyoga birlamchi ishlov berish bilan bog'liq tarmoqlari ko'proq rivoj topdi. Sanoatdagi tayyor mahsulotning salmog'i umumiy mahsulotlarning faqat 25 foizini, xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish esa o'rtacha Ittifoq darajasining faqat 40 foizini tashkil qiladi. Iqtisodiyot tizimidagi va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvdagi xatoliklar O'zbekistonda ekologik ahvolning ortishiga, moddiy va moliyaviy ahvolning yomonlashuviga olib keldi. Sanoat ishlab chiqarishning ko'payishi asosan paxta tozalash, yoqilg'i sanoati, resurs sohalari, qora va rangli metallurgiya tarmoqlari hisobidan ta'minlandi. Qora va rangli metallurgiya tarmoqlarining ulushi 60-65 foizga etdi. Holbuki, mashinasozlik va metallga ishlov berish samog'i ko'pi bilan ikki band yuqori ko'tarilib, 16 foizdan ko'proqni tashkil etgan edi. Markazning o'ta adolatsiz, faqat o'z manfaatini ko'zlab yuritgan siyosati natijasida mintaqalararo nomaqbul aloqalar yuzaga keldi, bunday sharoitda O'zbekistondan uning milliy manfaatlariga zarar etkazgan holda ko'proq miqdordagi xom ashyo va chala mahsulotlar olib ketilardi. Chetdan esa asosan asbob-uskunalar va tayyor buyumlar keltirilar ediki, bu boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan o'zaro munosabatlarda ziddiyatlarni chuqurlashtirar, joylarda ijtimoiy, milliy tanglikni vujudga keltirardi.

Davlatimiz rahbari respublikaga rahbar bo'lib tayinlangan kundanoq aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport ishlariga muhim e'tibor qaratdi. Chunki, respublikada ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan edi. Insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmayotgan edi.

Yurtimizda ilm-fan rivojiga ham muhim e'tibor qaratildi. Respublikamiz ilm-fani ham boshqa sohalar kabi Markaz manfaati va mafkurasiga xizmat qilar edi. Markazdan bo'lgan tinimsiz tazyiqlarga qaramay, 80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston ilm-fanida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy laboratoriyalar o'z faoliyatini takomillashtirishga harakat qila boshladi. Bu davrda tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha jiddiy izlanishlarga qo'l urilayotgan edi. Xususan, 1987 yilda Toshkent viloyatining Parkent tumanida nihoyatda noyob ilmiy-ekspremental majmua - "Bizerkal optika" – energetika qurilmasi foydalanishga topshirildi.

Ayniqsa, astronomiya sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlab Astronomiya instituti olimlari frantsuz olimlari bilan hamkorlikda Quyoshning global tebranishini tadqiq etish sohasida Yu.Solonnim, I.Sattorov, Z.Korobova, Sh.Egamberdiev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. 1986-yilda esa yuksak energiyali astrofizika bo'limi tashkil qilindi, unda gamma-astronomiya sohasida tadqiqotlar o'tkazish ishlari boshlab yuborildi. Shunigndek, biologiya, kibernetika, yadro fizika, kimyo va meditsina fanlari sohalarida ham bir qator muhim va dolzarb muammolar ustida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Islom Karimov respublika rahbari bo'lib faoliyat boshlashi bilan falsafa, tarix, ayniqsa, Vatan tarixini o'rganish, uning uslubiyotiga, "oq dog'lari"ga doir masalalar faol muhokama etila boshlandi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda jamiyat va

shaxs masalalari, madaniy meros, til muammolari kabi masalalarni hal etishga intilish yuzaga keldi. Bu masalalarga bag'ishlangan ilmiy, ayniqsa publistik maqolalar gazeta va jurnallar sahifalarida muntazam bosilib turdi.

Biroq, kommunistik mafkura yakka hokimligi sharoitida mazkur masalalarni to'liq hal etish mumkin emasdi. Mustabid tuzum milliy o'zlikni anglash jarayoniga tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatar, jamiyatdagi mavjud ziddiyatlar, nuqsonlar, illatlar aslida mustabid sovet tuzumi, kommunistik mafkura yakka hokimligi tufayli yuzaga kelayotganini yashirishga, niqoblashga urinar edi.

Ilm-fandagi bunday vaziyatni ko'ra olgan Yurtboshimiz dastlabki oylardayoq bu soha rivojiga va uning xalqimiz, yurtimiz manfaatlari uchun xizmat qilishiga muhim e'tibor qaratdi. 1989 yil 28 noyabrda O'zbekiston fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqida I.A.Karimov ilm-fanni yuksaltirish borasida mavjud muammo va vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Unda fan sohasidagi kadrlarni jadal etishtirish va yoshartirish uchun, intellektual imkoniyatlarni keskin darajada oshirish uchun respublika rahbariyati zarur mablag'larni, jumladan, valyuta mablag'larini ajratishga, tegishli tashkiliy masalalarni hal qilishga tayyor ekani ta'kidlandi.

Bu borada respublika rahbariyati tomonidan 1990 yildan boshlab mamlakat va chet ellardagi katta ilmiy markazlar doktoranturalaridan va stajirovka o'tash uchun yosh olimlarimizga 100 ta o'rin ajratish masalasini SSSR Fan va texnika davlat komiteti oldiga qo'yilishi ulkan amaliy tadbirlarning debonchasi edi. Mazkur taklifda biotexnologiya, malekulyar genetika, robototexnika, sistemasi, mashinasozlik texnologiyalari, demografiya iqtisodiyoti kabi sohalarda, fan texnika taraqqiyotining boshqa asosiy yo'nalishlarida ilmiy kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish masalasi ham ilgari surilgan edi. Unda ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbiiq etish, qolaversa olimlar faoliyatini respublika xo'jaligi taraqqiyoti uchun ustuvor bo'lgan sohalarga yo'naltirish belgilab berildi.

Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun oliy maktabning, hatto, umumta'lim maktablarining faoliyati takomillashtirilishi

rejalashtirildi. Ushbu rejalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, qo'llab-quvvatlash hamda ularning qobiliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;
- Maxsus respublika fondini tashkil etish hamda iqtidorli bolalar uchun maktablar va internatlar tarmog'ini vujudga keltirish, yosh olimlar uchun turli mukofotlar ta'xis etish;
- Fanni mablag' bilan ta'minlash muammolarini puxta ishlab chiqish, yangi institutlar tashkil etish, mavjud institutlarni o'zgartirish;
- Suv muammolari va atrof-muhitni muhofaza qilish instituti va boshqa bir qancha institutlarni tuzish;
- Respubdikada uzog'i bilan 2010 yilgacha ilmiy siyosat kontsepsiyasini hamda O'zbekistonda fan va texnikani rivojlantirishning tegishli dasturini ishlab chiqish.

O'zbekiston rahbari jamiyat taraqqiyotida olimlarning o'rni masalasiga to'xtalib o'tar ekan, "Hozir har bir olim, ayniqsa, jamiyatshunos olim o'z ilmiy faoliyatini respublika muammolariga, o'z xalqi va butun mamlakatimiz taqdiriga muvofiqlashtirishi lozim. Ravshanki, bunday intilish jamiyatshunos olimlar ilmiy va ijtimoiy faoliyatining birligi xarakterini, ularning respublika ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokini belgilab berishi kerak"¹, deb ta'kidlash bilan birga, ilmiy xodimlar o'z fikrlarini erkin, mas'uliyat bilan ifoda etishlari uchun sharoit yaratish, ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni bajarish uchun davlat buyurtmalarining tanlov sistemasini shakllantirishni ham bayon etdi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning yurtimiz uchun o'ta og'ir yillarda keskin muammolar girdobida turib, O'zbekistonning kelajagini aniq tasavvur qilgan holda ilgari surgan g'oya va dasturlari uning Vatanimizning yorug' istiqboliga qanday buyuk ishonch bilan qaraganidan yaqqol dalolat beradi.

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 89-бет.

Prezidentimiz respublika rahbarligiga tayinlangan dastlabki kunlaridanoq yurtimizning madaniy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Sovetlar hukmronligining so'nggi o'n yilliklarida O'zbekiston madaniyatining rivoj topishiga madaniyat va san'at sohasini moddiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlashda yo'l qo'yilgan jiddiy xatolar ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 1940 yildan boshlab surunkali ravishda mazkur soha uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish kamayib bordi: 1940 yili respublika aholisi talab-ehhtiyojlari uchun ijtimoiy-madaniy tadbirlar va fanning rivojiga sarflangan harajatlar respublika byudjeti umumiy harajatlar qismining 67,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1980 yilga kelib 46,9 foizini tashkil etdi.¹ Fan va madaniyat uchun ajratilgan mablag'ning muntazam kamayib borishiga sabab davlatning bu soha uchun mablag' ajratishni istamaganidan emas, balki Sovet davlatining iqtisodiy ahvoli tobora yomonlashib borayotganidan dalolat edi. Ayniqsa, bu 80-yillarning ikkingchi yarmiga kelib holat keskin tus ola boshladi.

Shunday bo'lsa-da, mustabid tuzum o'zining mafkuraviy cheklashlaridan, kommunistik g'oyaga zid bo'lgan qarashlarga murosasiz bo'lishdan voz kechmadi. Aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik yillarida sobiq Ittifoqda qiyosiy aqidaparastlik yanada kuchaydi. Bu yillarda musulmonchilik va millatchilikning barcha ko'rinishlari yana bir karra "eskilik sarqiti" sifatida qoralandi. Bunday hol, ayniqsa 80-yilning o'rtalarida, davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasining birinchi kotibi Sharof Rashidov vafotidan so'ng siyosiy hokimiyat tepasiga kelgan I.Usmonxo'jaev ma'muriyati davrida yaqqol sezildi. Bu davrda respublika rahbariyati, asosan, Markazning "ko'rsatmasi"ni to'xtatmasdan bajarish, uni hayotga tatbiq qilish bilan shug'ullandi, xolos. Xalqning taqdiri. Ijtimoiy-madaniy ahvoli Usmonxo'jaev ma'muriyatini qiziqitirmadi. Bu yillarda respublikada ko'plab masjidlar, madrasalar yopib qo'yildi, ular yana omborxonalariga aylantirildi. Diniy marosimlar qat'iy cheklandi,

¹ Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 г. –Т.: 1981. С.138.

janoza o'qish, marhumlarni so'nggi yo'lga kuzatish va boshqa odatlar taqiqlandi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy, islomgacha mavjud bo'lgan milliy-an'anaviy bayrami "Navro'z" ta'qib ostiga olindi. Go'yo Navro'zni umumxalq bayrami sifatida nishonlash boshlanganidan bo'yon respublikada "dinga ishonuvchilar soni ko'paygan" emish. Kommunistik aqidaparastlar Navro'zni ta'qiqlab, uning o'rniga "Navbahor" bayramini o'ylab topdi. Lekin o'zbek xalqi yuqoridan "tushirilgan" yangi bayramni qabul qilmadi.

Urushdan keyingi murakkab va o'ta ziddiyatli yillarda xalqimiz o'ligini, qadimiy milliy madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Lekin bu oson kechmadi. Bu yo'lda o'ziga xos kurashlar va yo'qotishlar sodir bo'ldi. Kommunistik mafkura mahalliy xalqning milliy g'ururini sindirishga urindi. Xalqni milliy madaniyatdan, milliy an'analardan chalg'itish uchun "kommunizm" va "rivojlangan sotsializm" kabi xayoliy aqidalarni o'ylab topdi. Ularni xalq ommasi ongiga singdirish uchun barcha choralar, vosita va usullardan foydalandi. Lekin o'zbek xalqi bularning barchasiga bardosh berdi.

Prezident o'z asarida mustaqillik arafasidagi madaniyatning ahvolini afsus bilan shunday tasvirlaydi: "Madaniyatning moddiy bazasiga nazar solsak, uyalib erga kirib ketgudek bo'lamiz. Hamonki, jamiyat madaniyatga hayotning boshqa sohalariga nisbatan sariq chaqa sarflayotgan ekan, vujudidan yuksak ichki madaniyat nurdek taralib turgan odamni tarbiyalashi mumkinmi?"

Bugun bosib o'tgan yo'limizga o'z-o'zini tanqid ruhida nazar tashlab, shuni ro'yi-rost tan olishimiz kerakki, biz madaniyat muammolariga kechirib bo'lmaydigan tarzda kam e'tibor bergan ekanmiz. Nutqlar va ma'ruzalarda jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida madaniyatning tutgan o'rne haqida juda balandparvoz gaplarni ko'p aytdik. Lekin amalda, ya'ni teatr va kinoteatrlarda qurish yuzasidan aniq vazifalarni hal etishda, ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan noyob me'moriy obidalarni ta'mir etishda, kitob nashr etishni yaxshilashda, xalq san'atini rivojlantirishda, taassufki, biz o'zimizning jarangdor chaqiriqlarimiz va shiorlarimizni amalga oshirish yuzasidan oz ish qildik.

Nimaga mo'ljallangani notayin bo'lgan inshootlar va ma'muriy binolar qurilishiga million-million so'm mablag'larni sarflab yuboraverib, xalqning ma'naviy va jismoniy kamoloti uchun juda zarur bo'lgan klublar, kutubxonalar, sport inshootlari qurilishiga mablag'ni ayadik"¹.

3.3. Jahon hamjamiyati sari qo'yilgan ilk qadamlar

“O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida mamlakatimizda istiqloлга erishish, xalqimizning qonuniy manfaatlari va erkinliklarini ta'minlash borasidagi ichki siyosatga dahldor eng ustuvor masalalar Vatanimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, tenglar ichida tenglar bo'lishini ta'minlashdek tashqi siyosatga oid ulug'vor vazifa bilan birgalikda olib borilganini ko'ramiz. Bu, o'z navbatida, Yurtboshimiz Islom Karimovning zamonaviy O'zbekiston davlatchiligini tiklash va rivojlantirishning barcha masalalarining kontseptsiyasini kompleks tarzda ishlab chiqqani va bir butun holda, o'zaro uzviy bog'liqlikda amalga oshirgani, uning naqadar uzoqni ko'zlab ish tutadigan siyosatchi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Ya'ni davlat, mamlakat yaxlit bo'lgani, uning o'z oldiga qo'ygan umumiy strategiyaga – ana shu davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish va mustahkamlash strategiyasiga buysundiriladi. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobidan o'rin olgan barcha chiqishlar, noyob hujjatlar misolida bu haqiqatga to'la ishonch hosil qilishimiz mumkin.

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 223-бет.

Haqiqatan ham, Islom Karimov O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlagan birinchi kunlardanoq, qanchalik og'ir va murakkab bo'lmasin, ichki va tashqi siyosat masalalarini bir nuqtadan – faqat va faqat respublikamiz manfaatlaridan turib hal etish bo'yicha keng ko'lamli faoliyat olib bordi. Masalan, o'sha paytda xalqimizga nisbatan adolatsizlik avjiga chiqqan, Markazdan kelgan Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi tergovchilar guruhi qanchadan-qancha begunoh odamlarni “poraxo'rlik”, “qo'shib yozish”, “ko'zbo'yamachilik” degan, kurakda turmaydigan soxta gaplar bilan ayblab, qonunbuzarlikni avj oldirib yuborgan edi. Bu ham etmaganidek, Markazdagi katta-katta sovet matbuot nashrlari xalqimizga nisbatan tinimsiz tuhmat va malomatlar bo'ronini yog'dirar edi. Bu, o'z navbatida, sobiq Ittifoqda, jahon jamoatchiligida O'zbekiston haqida, uning xalqi haqida noto'g'ri fikr va qarashlarni shakllantirar edi. Buni o'z vaqtida chuqur tushungan Islom Karimov avvalo respublikamizda Gdlyan va Ivanov faoliyatiga chek qo'yish, minglab odamlarga nisbatan adolatni, ularning qonuniy haq-huquqlarini tiklash, o'zlarini, oilasini tuhmatlardan xalos qilish bo'yicha ulkan amaliy ishlarni boshlagan bo'lsa, ayni vaqtda sovetlarning eng nufuzli minbarlaridan turib xalqimizning pok nomini, sha'nu sharafini dadil himoya qilishga kirishdi. Bunday jasoratli harakatlar hali mustabid mafkura mafkura to'la hukmron bo'lib turgan o'sha tahlikali yillardayoq o'zbek xalqi, O'zbekiston haqidagi tasavvurlarning jahon ahli o'rtasida ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, bunday qat'iy harakatlar O'zbekistonni dunyoga asl qiyofasi bilan tanitish yo'lidagi shu paytga qadar hech kim qilmagan, jur'at ham etolmagan tarixiy qadamlar edi.

Yurtboshimizning Rossiyaning “Izvestiya”, “Komsomolskaya pravda”, “Rabochaya tribuna”, germaniyaning “Di Tsayt”, Hindistonning “Tayms of India” singari jahondagi nufuzli nashrlarga bergan intervyulari, respublika va Ittifoq miqyosidagi katta yig'ilishlardagi chiqishlarda, ayniqsa, O'zbekiston Oliy kengashining 1992 yil 4 yanvardagi navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida yurtimizning ichki hayotidagi o'zgarishlar, real vaziyat

mustaqil tashqi siyosat yuritishni taqozo etayotganini asoslab beradi. Uning fikricha mustaqil tashqi siyosat- mustaqil milliy davlatchilikning eng muhim ustuvor atributi va shartidir. Shuni aytish kerakki, O'zbekistonning ichki siyosati qanchalik chuqur o'ylangan bo'lsa, uning tashqi siyosati ham aynan ana shu tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgani va amalga oshirilgani mazkur kitob sahifalarida atroflicha yoritib berilgan.

Islom Karimov ichki siyosatda qanchalik buyuk jasorat, azmu shijoat va yuksak tafakkur bilan faoliyat olib borgan bo'lsa, bularning barchasi uning tashqi siyosat borasidagi faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'bir joiz bo'lsa, respublikamiz rahbarining siyosatning hal qiluvchi ana shu ikki jabhasidagi faoliyatini bamisoli goh o'nga, goh chapga sherdek tashlanib, o'z ortidan kelayotgan el-ulusga yo'l ochib berayotgan buyuk bahodirlarning mardona harakatlariga qiyoslash mumkin. Hozirgi tinch zamonda davlat rahbarlarining ichki va tashqi siyosat borasidagi faoliyat masalalari bir necha oy, ba'zan hatto undan ham ziyod vaqt oldin rejalashtirilib, har bir tadbirga avvaldan puxta tayyorgarlik ko'rib boriladi. Lekin 1989-1991 yillarda vaziyat shu qadar po'rtanadek hammayoqni titratib shiddat bilan o'zgarib turar ediki, ba'zan ham ichki, ham tashqi siyosatga oid dolzarb masalalarni bir vaqt, bir lahzaning o'zida hal qilishga to'g'ri kelar edi.

Masalan, 1991 yil 19 avgustda Islom Karimov tashqi siyosat masalalari bilan Hindistonda rasmiy tashrifda bo'lgan paytda. Sobiq ittifoqda GPChP voqeasi sodir bo'ladi. Zudlik bilan O'zbekistonga qaytib, ichki siyosatda yuzaga kelgan o'tkir masalalarni- odamlarni GKChP qarorlari noto'g'ri ekaniga ishontirish, ularni behuda engil-elpi da'vatlarga uchmaslikka chaqirish, eng muhimi, yurtimizda tinchilik va barqarorlikni saqlab qolish, to'g'ri yo'ldan chalg'ituvchi har xil ekstremistik harakatlarga yo'l qo'ymaslik lozim edi. Shuning uchun Islom Karimov aeroportdan to'g'ri hukumat uyiga keladi va ichki siyosatning eng muhim masalalarini hal etishga kirishadi. Davlat boshqaruvida bunday murakkab masalalarni tezkorlik bilan, oqilona va qat'iy hal etishga hamma siyosatchilar ham

qodir bo'lmaydi. Buning uchun kuchli iroda, ulkan aql-idrok va keng tafakkur o'z kuchiga ishonch kerak bo'ladi. O'zbekistonga qo'shni ba'zi mamlakatlarda rahbarlarning irodasi sustligi, uzoqni ko'zlab siyosat olib borolmasligi tufayli qanday ayanchli voqealar yuz berganini ko'rdik. Ular vaziyat ozgina keskinlasha boshlashi bilan muammoni hal qilish o'rniga o'z vazifasini tashlab, xalq va davlat oldidagi mas'uliyatini unutib, chetga qochib ketishgani matbuot xabarlaridan yaxshi ma'lum.

XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Evropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir necha mustaqil respublika, Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo'linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan ulkan hududda yagona davlat paydo bo'ldi. Ayni chog'da sobiq SSSR parchalanib, uning o'rnida mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan 15 mamlakat tashkil topdi.

Boshqacha qilib aytganda, bu davrga kelib ko'pgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan tarixiy jarayonga aylandi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayonda yuz berdi. "Xalqlarning ozodlik, mustaqillik, baxt-saodatga azaliy intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashga azmu qarori hayotdagi chuqur o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir", degan edi I.A.Karimov¹.

XX asr 90-yillarning boshlariga kelib O'zbekistonda xalqning ana shu azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi.

Sobiq Ittifoqda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan; zo'ravonlikka asoslangan, ma'muriy-buyruqbozlikka xos bo'lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi, yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. 416-бет.

ittifoqdosh respublikalar suvereniteti ta'minlanadimi, degan masala dolzarb bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi sobiq Ittifoq rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi.

SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va Hukumati ham inqiroz holatidan chiqishning yo'lini topa olmadi. Xullas, 90-yillarning boshlariga kelganda Markaz va Ittifoqdosh jumhuriyatlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro'yi puturdan ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayoti izdan chiqdi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy ahvoldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomonlasha boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi buzildi. Bu hol tabiiy ravishda xalqning ko'zini ochdi, endi u eskicha yashay olmay qoldi.

Shuni aytish kerakki, sobiq Ittifoqda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiga o'tkazish masalasi 1987-yili xalq deputatlari ikkinchi s'ezdi qarori va iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga qaratilgan hukumat dasturida tilga olingan, u 1990 yilning may oyida Oliy Sovet III sessiyasida muhokama qilingan edi.

Shunday qilib, sobiq Ittifoq ijtimoiy taraqqiyotida uchta yo'nalish – totalitarizm, jahon tajribasiga xos transformatsiya va sotsialistik yo'nalishdagi demokratik kuchlar to'qnashib qolgan edi. Tabiiyki, bu mamlakat ijtimoiy- siyosiy hayotida tanazzulni vujudga keltirgan edi.

Ana shunday ziddiyatli bir sharoitda O'zbekiston rahbariyati bu yo'nalishlarning nomaqbul ekanini aniq ravshan ko'rdi va respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'lini mustaqil tarzda o'zi belgilay boshladi. Avvalo, O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish kontsepsiyasini tayyorlashga kirishildi. Kontsepsiya respublika Davlat reja qo'mitasi, Moliya vazirligi, bosh vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qo'mitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Unga ko'ra, "O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy printsiplari" ishlab chiqildi va u 1990 yil 17-oktyabrda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi. 1990 yil oktyabrning

oxirida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi IV sessiyasida bu masala yuzasidan Hukumat hisoboti eshitildi.

Oliy Kengash sessiyasi “vujudga kelgan ahvoldan chiqishning yo'lini respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jadallashtirishdan iborat” deb hisobladi.

Shuning uchun ham sessiya respublika hukumati dasturini ma'qulladi va O'zbekiston Ministrlar Sovetiga “O'zbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlash, shuningdek, birinchi iyungacha O'zbekiston Oliy Sovetiga iqtisodiy tizim masalalari va er, er osti hamda boshqa tabiiy boyliklarni, ishlab chiqarish korxonalarini O'zbekiston SSR mulkiga o'tkazish bo'yicha O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga kiritiladigan o'zgarishlar to'g'risida Qonun loyihasi” kiritishni topshirdi.

Hukumat dasturiga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning aossiy yo'nalishlari qilib belgilandi.

Shuningdek, ushbu hujjatda O'zbekiston SSR iqtisodiy mustaqilligini kengaytirishning bosh maqsadi iqtisodiyotning jo'shqin, yuksak samarali, ekologik jihatdan xatarsiz rivojlanishini, aholining hozirgi zamon turmush standartlari darajasidagi farovonligini, ijtimoiy adolat va himoyalaniшни ta'minlaydigan yangi xo'jalik-huquqiy sharoitlarni shakllantirishdan iborat qilib belgilandi.

Ayni vaqtda, kontseptsiyada maqsadga erishish yo'lidagi vazifalarni hal etish, jumladan, respublika bilan Ittifoqning o'zaro majburiyatlari va o'zaro mas'uliyati asosida:

- O'zbekiston SSR bilan SSSR o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari ga aniqlik kiritish;
- Davlat mulkining xaddan tashqari markazlashuvini va byurokratik tashkil etilishini bartaraf qilish;

- Mulkchilikning xilma-xil shakllarini rivojlantirish, bu shakllarning teng huquqliligi va musobaqalashuvini ta'minlash;
- Asosan, iqtisodiy usullar negizida respublikaning xalq xo'jaligi davlat boshqaruviga o'tish, rejalashtirish, moliya-byudjet, bank tizimini sifat jihatdan o'zgartirish, mehnat munosabatlarini va tabiatdan foydalanishni tartibga solish;
- Bozor mexanizmlarini vujudga keltirish, tovarlar, xizmatlar, moliya-kredit resurslariga talab va taklifni tartibga soladigan narx va boshqa vositalarning ahamiyatini oshirish, O'zbekiston SSRning ichki, O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'iston mintaqa bozorini rivojlantirish;
- Barcha fuqarolarning qobiliyatlardan to'la-to'kis foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining kam daromadli tabaqalarini qo'lab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodni sog'lom tarbiyalash, sog'liqni saqlash, maorif, fan, madaniyat va san'atni rivojlantirishni ta'minlaydigan ijtimoiy kafolatlarning ta'sirchan tizimini vujudga keltirish;
- Respublika tashqi iqtisodiy faoliyati mexanizmini sifat jihatdan o'zgartirish, shu jumladan, eksport, import operatsiyalari sohasidagi huquqlar va imkoniyatlarni kengaytirish;
- Xorijiy sarmoyalar, O'zbekiston SSR iqtisodiyotiga investitsiya kiritish, chet el sayyohligini rivojlantirish va h.k.
- Respublika va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv idoralarining vakolatlari va mas'uliyatini ajratib qo'yish va xalq deputatlari mahalliy sovetlarining tashkiliy-huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarni aniqlab belgilash;
- Respublikadagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda qatnashuvchi demokratik jamoat muassasalari, iste'molchilar jamiyatlari, ishlab chiqaruvchilar uyushmalari, ekologiya va fan-

texnika jamiyatlari, xayriya jamg'armalari va shu kabilarni vujudga keltirishga ko'maklashish nazarda tutildi.

Umuman, O'zbekiston rahbariyati sobiq Ittifoq hukumatiga O'zbekistonning shoshilinch bozor iqtisodiyotiga o'tish to'g'risidagi ko'rsatmasiga e'tiroz bildirib, bu respublika sharoiti uchun birdaniga to'g'ri kelmasligini va bozor iqtisodiyotiga avvalo aholini, birinchi navbatda, uning kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy kafolatlab, so'ng o'tish borasida O'zbekiston o'zi mustaqil harakat qilishini ma'lum qildi.

1990 yil 29 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi "Ittifoqning yangi shartnomasi va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish programmasining asosiy qoidalari va yo'l-yo'riqlariga nisbatan respublikaning tutgan o'rni to'g'risida"gi masalani ko'rib chiqib, bu borada shoshilmaslik joizligini yana bir bor ta'kidladi. Oliy Sovet Prezidiumi Ittifoqning yangi shartnomasini tuzish hamda boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish Dasturi bo'yicha tayyorlangan takliflar birinchi turkumini chuqur o'rganib chiqish va muhokama qilish uchun O'zbekiston Oliy Soveti, Kompartiya Markaziy Qo'mitasi, Fanlar akademiyasi va boshqa tashkilotlarga yubordi.

Ko'rinib turibdiki, yangi Ittifoq shartnomasi loyihasi O'zbekiston tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi, bu erda birinchi navbatda O'zbekistonning milliy manfaatlari himoya qilinishi nazarda tutildi. Yangi Ittifoq shartnomasini: O'zbekistonning siyosiy suverenitetiga zarar etkazmaydimi, degan nuqtai nazardan kelib chiqqan holda imzolash ko'zda tutildi.

Shunga muvofiq respublika hukumati iqtisodiy mustaqillikni bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadigan aniq dastur ham ishlab chiqdi. Jumladan, uning birinchi bosqichi 1990-1992 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda 1990 yil alohida o'rin tutadi. Chunki ayni ana shu yilda tang ahvolni bartaraf etishning negizlari bunyod etilishi kerak edi.

Shu uch yil mobaynida yangi xo'jalik mexanizmining barcha asosiy unsurlari uzil-kesil harakatga kelishi, davlat byudjeti kamomadiga, aholining pul

daromadlari hamda uni tovar bilan ta'minlash o'rtasidagi nomunosiblikka barham berilishi, pulning qadrsizlanishi kuchayib borishini to'xtatish, mazkur bosqichda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mulk munosabatlarini tubdan o'zgartirish, zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar zimmasiga o'z ishini o'nglab olish vazifasini yuklash ko'zda tutildi.

Ikkinchi bosqich 1993- 1995 yillarni o'z ichiga olishi mo'ljallandi. Bu davrga kelib iqtisodiyotni sog'lomlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi, asosan ichki iste'mol bozoridagi, pul muomalasi va byudjetdagi kamomadlarga barham berilishi, yangi iqtisodiy qonunlar joriy etilishi lozim edi. Ya'ni, bozor munosabatlarini me'yoriy rivojlantirish uchun amalda zarur iqtisodiy sharoitlar yaratilishi, bu davrda davlat ixtiyorida bo'lmagan sektor hissasining oshishi ko'zda tutilgan edi.

X U L O S A

Atoqli nemis olimi Karl Yaspers o'z vaqtida "Buyuk shaxslar boshqalarning erkinligi va ozodligi uchun o'zining majburiyatini chuqur his qiladi"¹, deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, tarixiy davr va ijtimoiy vaziyatning o'zi ulkan faziyatlarga ega bo'lgan buyuk shaxsni maydonga chiqaradi. Buyuk shaxs esa, tasodif emas. U o'z xalqining maqsadlariga, orzu-umidlariga, intilishlariga, sevinchu istiroblariga, baxtli va sitamli onlarining guvohi bo'lib, yaxlit jamiyat ma'naviy ruhiy sharoitda shakllanadi, rivojlanadi, kamolotga etadi.

¹ Гобозов И.А. Сациальная философия. МГУ. М.: 2007. стр. 187.

Prezident Islom Karimov ham ayni O'zbekistonda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat oqimida shakllandi, totalitar rejimning butun mohiyatini o'zbek xalqining tarixiy qadr-qimmatini chuqur angladi. Natijada millat sha'nini tiklash, orzu-umidi bilan yashadi va shakllandi.

Umuman olganda, buyuk shaxs zamonaviy bilimlar saviyasini egallagan, har qanday sharoitda tez va to'g'ri qarorga kela oladigan kuchli, g'ayratli, qat'iyatli, ayni paytda, javobgarlikni chuqur his qila oladigan inson sifatida o'zini namoyon qila oladi. Atrofdagilarning manfaatlarini o'z hayotidan ko'ra balandroq qo'ya oladi. O'zi qabul qilgan qarorlarni va rejalarni amalga oshirish uchun har qanday xavf xatarni zimmasiga oldi.

Buyuk shaxs, eng avvalo, milliy qadriyatlarni qadrlay oladi, hurmat qila biladi va ayni paytda, o'ziga nisbatan hurmatni ham talab qiladi. Aniq xulosaga ega bo'lmagan inson ijtimoiy hayotda aniq o'ringa ega bo'lmaydi. Bunday odamlar uchun ijtimoiy mohiyatga ega bo'lish, ijtimoiy qadriyatga aylanish haqida gapirish o'rinsiz. Voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirsa olmaydigan, boshqalar fikri bilan yashaydigan, vaziyatga qarab ish tutadigan, o'ta yumshoq va noshud inson shaxs bo'lib etisha olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday shaxs o'z qiyofasiga, o'z xulosasiga, har qanday vaziyatdan chiqsa olish iqtidoriga ega bo'ladi.

Shaxsning butun qadriyatini belgilaydigan omillardan yana biri bu bevosita o'zining har bir fikri va hatti-harakati uchun javobgarlikni chuqur his qilish va tushunishdadir. Ayni ana shu fazilat shaxsning jamiyatdagi o'rnini, mavqeini, obro'-e'tiborini belgilaydi. Javobgarlik hissi, dahldorlik tuyg'usi, millat va jamiyat oldidagi ulkan majburiyatni chuqur his qilish va eng muhimi ushbu javobgarlik va majburiyatni ijtimoiy hayotning real voqeligiga aylantirish shaxsning butun qadriyatini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi.

O'zbekistonning yangi rahbari – Islom Abdug'anievich Karimov qizil imperiya va kommunistik partiyaning istiqboli yo'qligini, tajovuz va g'oyaviy-mafkuraviy zo'ravonlikka asoslangan “Harbiy kommunizm” uzoqqa bormasligini

sobiq Ittifoq hududida mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ancha keskinlashganini o'z safdoshlari va elkadoshlaridan ancha oldin chuqur tushundi. Bunday murakkab vaziyatdan tahlikaga tushgan kommunistik mafkura hohlaydimi-yo'qmi, o'z g'oyalarini qisman o'zgartirish, ish uslubining yangi shakllarini izlab topishi, qisqasi, imperiyachilik siyosatini va mavjud tuzumni saqlab qolish uchun qandaydir o'zgarish qilishi kerak edi. Ana shu harakatlarning mahsuli sifatida Gorbachevcha "qayta qurish" siyosati dunyoga keldi.

Bir qarashda qayta qurishning siyosati sovet ittifoqida demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning haq-huquqlari va erkinliklarini kengaytirish borasida ma'lum darajada ijobiy siljishlarga olib keldi. Biroq, bu asl manzaraning tashqi ko'rinishi edi, xolos. Aslida esa qayta qurish siyosati o'zining ko'zlagan maqsadiga, kutilgan natijasiga erisha olmadi.

M.Gorbachev boshchiligidagi sovet hukumati rahbariyati nomigagina erkinlikka yo'l berib, inson huquqlari xususida ko'pirtirib gapirsada, mohiyatan totalitar tuzum va ma'muriy-buyruqbozlik rejimini saqlab qolishdan manfaatdor edi. Zotan, ular hech qachon SSSRning tarqalib ketishini nazarda tutmagan va buni kutmagan ham edi.

Jarayonlar bu darajada tezlashdiki, oxir oqibatda nafaqat M.Gorbachevni balki butun Siyosiy Byuroni, partiya Markaziy Qo'mitasini, hukumatni talvasaga solib qo'ydi. Natijada ma'muriy organlar kuchidan foydalanish yo'li tanlandi. Turli shaharlarda, mintaqalarda, SSSRning faol va demografik jihatdan murakkab bo'lgan, geosiyosiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan nuqtalarida beqarorlikni vujudga keltirish orqali mamlakat aholisini chalg'itish yo'liga o'tildi.

Umuman olganda, Islom Karimov respublika rahbarligiga saylanganidanoq Markaz bilan o'ziga xos "munosabat"da bo'ldi. Ochiqroq aytganda, uning o'ta qat'iyatliligi, o'z fikriga va xulosasiga egaligi hamda o'z yo'liga sobitligi "ulug' og'a"larga unchalik ham yoqmasdi. Ikkinchidan, millat manfaatiga ko'proq yon bosgani, respublika ichki hayotidagi vaziyatga chuqurroq kirib borgani sayin KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosida ham, SSSR Oliy Kengashi va Ittifoq

idoralarida ham unga nisbatan munosabat keskinlasha boshladi. Ayniqsa, yurtimizni abgor qilib Markazga “qochib” borgan bir guruh “sobiqlar” bunday “qulay” fursatdan foydalanib qolish uchun turli-tuman hiylayu nayranglarni ishga solishdi. Qator markaziy nashrlarda O‘zbekiston va uning rahbariyatiga nisbatan ig‘vogarliklar uyushtirishdi. Bunday og‘ir, ziddiyatli bir sharoitda ishlash davlat rahbaridan alohida asab, nihoyatda vazminlik, po‘latdek mustahkam iroda talab etadi.

Ana shunday paytda I.Karimov raqiblarga hurmat bilan qarash, ularning fikrini diqqat bilan eshitish, zarur bo‘lsa ulardan ijobiy xulosalar chiqarish, xalq va mamlakat manfaati uchun har qanday ig‘vogarliklar, tazyiqlaru zo‘ravonliklar, qolaversa maqtovluru xushomadgo‘yliklarga bir xilda munosabatda bo‘lish, faqat aql-idrokka tayanib ish tutish namunasini ko‘rsatdi.

Prezident Islom Karimov – el-yurt uchun fidoyi, buyuk azmu shijoat, mustahkam iroda egasi. U ozgina adolatsizlikka ham chiday olmaydigan, haq va haqiqatni butun vujudi bilan himoya qiladigan siyosatchi. Uning ana shunday fazilati ayniqsa Respublika rahbarligiga saylanganidan so‘ng yana ham yorqinroq ko‘zga tashlana boshladi. Chunonchi, Farg‘ona voqealari yuz bergan bir paytda deputatlardan qonli to‘qnashuv sabablarini respublika Oliy Kengashi sessiyasida keng muhokama qilishni so‘radi. SSSR Oliy Kengashidan bu fojialar asosini chuqur o‘rganish va o‘z vaqtida siyosiy baho berishni talab qildi. Uning bevosita tashabbusi bilan fashizmga qarshi urush yillarida vatanidan quvib chiqarilgan qator xalqlarga o‘z yurtiga qaytishga yordam berish to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilindi va SSSR Oliy Kengashiga taqdim etildi. Aytish mumkinki, o‘z vaqtida katta siyosiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bunday hujjat faqat O‘zbekistonda qabul qilindi va uning rahbariyati hamda xalqi hoxish-irodasining ifodasi sifatida butun SSSRda e‘lon qilindi.

Shunday qilib, davlat rahbari hayoti uchun xatarli, ammo millat va yurt istiqboli uchun shukuhli bo‘lgan dastlabki, zalvorli qadamlar qo‘yildi. Yurtimizning xalq dushmani sifatida qoralangan milliy merosimiz va

qadriyatlarimizni asl farzandlaridan tortib buyuk allomalarimiz hayoti va ijodini o'rganish, man etilgan ulug' tariximiz, milliy merosimiz va qadriyatlarimizni – barcha-barchasini tiklash uchun sharoit tug'ildi. Halqimiz uchun borgan sari o'zligini anglashga, o'zligini tiklashga, tarixiy qadriyatlarini o'z vaqtida baholashga zamin yaratildi. Xo'sh bularning hammasiga qanday qilib erishildi? Bunday imkoniyat o'z-o'zidan yuazaga keldimi? Yo'q albatta!

FOYDALANILGAN ADABIYO TLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va rasmiy hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan (2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 25 dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilgan). –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2009.
2. Ona tili – Davlat tili (O'quv qo'llanma-majmua) O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga oid hujjatlar G'Tuzuvchilar: N.Jumaxo'ja, R.Jomonov. –T.: “Adolat”, 2004.
3. Statistika to'plam. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillika yillaridagi (1991-2010 yillar) asosiy tendentsiya va

ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. O'zbekiston SSR, mahalliy Sovetlarning xalq deputatlari va jamoatchilik vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan kengashda so'zlangan ma'ruza. 1990 yil 24 fevral.
2. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. –T.: “O'zbekiston”, 1993.
3. Karimov I.A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'. –T.: “O'zbekiston”, 1998.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. – T.: “O'zbekiston”, 1999.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: “O'zbekiston”, 2003.
6. Karimov I.A. Demokratiya – qonunga va shaxsga hurmat demakdir. G'G' O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. G' I.A.Karimov. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.
7. Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanaylik. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqidan, 1989 yil 28 noyabr. G'G' O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. G' I.A.Karimov. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.
8. Karimov I.A. Mustaqil O'zbekistonning davlat siyosati insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanadi. G'G' O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. G'I.A.Karimov. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.
9. Karimov I.A. Xalqaro irodasi bilan tanlangan yo'l. G'G' O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. G' I.A.Karimov. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.

10. Karimov I.A. O'zbekiston dunyo xaritasida o'ziga munosib joy oldi. G'G' O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. G'I.A.Karimov. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011

11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.

III. Davriy matbuot:

1. Istiqlolimiz tarixining yorqin ko'zgusi, “Xalq so'zi”, 2011 yil 2 avgust.

IV. Ilmiy adabiyotlar:

2. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. G'Q.A.Ahmedovning umumiy tahriri ostidaG'. –T.: “O'zbekiston”, 1992.

3. Azizxo'jaev A. Chin o'zbek ishi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2011.

4. Jo'raev N. Tafakkurdagi evrilish. –T.: “Sharq”, 2001.

5. Ziyodullaev S. Ekonomicheskie reformo' Uzbekistana v deystvii. –T.: «Uzbekistan», 1994.

6. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar G' So'z boshi: I.G'afurov. –T.: “Sharq”.

7. Rahmonqulov H. Huquq tizimi va uning sohalari. G' Mas'ul muharrir R.J.Ro'ziev; O'zbekiston Respublikasi FA I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. G' -T.: “Falsafa va huquq instituti”, 2005.

8. Sitara Sayed. Sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorligi. G'G' Sud-huquq tizimi islohoti: amaliyot va samaradorlik (xalqaro konferentsiya materiallari; Toshkent, 2009 yil 30 sentyabr). – T.: KONSAUDITINFORM-NASHR, 2010.

9. To'xlijev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. –T.: “O'zbekiston”, 1992.

10. O'zbekistonning yangi tarixi.K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. G'G' Tuzuvchilar: M.Jo'raev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshq. Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jaev (rais) va boshq.G'. –T.: “Sharq”, 2000.

11. Quddus A'zam. Og'ir sinovlar davri. –T.: Alisher Navoiy nomli “O'zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti, 2004.
12. Jo'raev Narzullo. O'zbekiston tarixi. (Milliy istiqlol davri.) 3-kitobG'Mas'ul muharrir N.Abdumuzimova. –T.: “Sharq”, 2011.